

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI

“IJTIMOIY-IQTISODIY” FAKULTETI

KASB TA`LIMI (IQTISODIYOT) YO`NALISHI

14.64-guruh bitiruvchisi

Ubaydullayev Iqboljon Ibrohim o`g`lining

**O`rta mahsus kasb- hunar ta`limi tizimini mutahasis kadrlar
bilan ta`minlashning ilmiy pedagogik asoslari.**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

katta o`qituvchi : Mannopova M

FAR`GONA- 2018

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I- bob Kasb- hunar ta`limi mazmuni va uni mutaxassis kadrlar bilan ta`minlashning ilmiy nazariy asoslari	
1.1. Kasb-hunar ta`limi tizimzini mutaxassis kadrlar bilan ta`minlashning maqsadi va vazifalar.....	5
1.2. Kasb ta`limida mutaxassislarni ta`minlash va ularni tarbiyalashning ustivor yo`nalishlari.....	13
1.3. Kasb- hunar ta`limi tizimida malakaviy va o`quv ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish va uni meyorlashtirishning ilmiy pedagogik asoslari.....	21
II- bob. Kasb- hunar ta`limi tizimida mutaxassis kadrlardan foydalanishning holati va ular faoliyatini samaradorligini oshirishning yo`llari (Farg`ona 2-ijtimoiy-iqtisodiy kolleji misolida)	
2.1. Kasb –hunar kollejida mutaxassis kadrlardan foydalanishning holati va tahlil.....	36
2.2. Mutaxassis kadrlar faoliyatining samaradorligini oshirishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy pedagogik asoslari..	47
2.3. Kasb-hunar kollejlarda mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirish va tizimning shakllanish tamoyillari.....	60
Xulosa va takliflar.....	65
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	71

Kirish

Mavzuning dolzarbliligi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining hozirgi davrdagi rivojlanishi, yangilanishi, kelajakda qanday bo‘lishi, yosh avlodning har tomonlama yetukligiga, ya’ni ularning qay darajada barkamol shaxs sifatida tarkib topishlariga, o‘zlarida ijodiy fazilatlarini va qobiliyatlarini mujassamlashtirgan shaxs bo‘lib yetishganligiga bog‘liqdir. Mamlakat rivoji hozirgi zamon bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari - ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning xarakteri va yo‘nalishini belgilab beruvchi muhim omillar sifatidagi axborotlar roli hamda ahamiyatining o‘sib borayotganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish va uning mazmunini shakllantirish, kadrlar tayyorlash tizimi boshqaruvini takomillashtirish, yetuk kadrlarni tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi qonunlarga muvofiq ta’lim jarayonining ilmiy hamda ilmiy–metodik ta’minoti sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro‘yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Hozirgi kunda respublikamizda 1411 ta kasb- hunar kollaejlari bo‘lib ulardan 253 tasi qishloq ho`jaligi ,190 tasi sanoat,152 tasi iqtisodiyot,172 tasi

hizmat ko'rsatish 173 tasi qurilish ,82 tasi sog'liqni saqlash , va boshqa yo'nalishlari bo'yicha yoshlarimizga bilim, malaka bermoqdalar.

Shu bilan birga kasb hunar ta'limi sohasida 167 mingdan ortiq pedagoglar faoliyat ko'rsatishmoqda. Oliy o'quv yurtlarida esa to'la stavkada 25 mingdan ortiq professor o'qituvchilar dars berishmoqda.Ulardan 1470 tasi fan doktori ,7113 tasi fan kandidanti ,1232 kishi professor 4885 kishi dotsent lavozimida ishlaydi.

Oliy ta'lim va kasb hunar talimi tizimidagi o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirish, jamiyatda ro'yobga chiqarilayotgan islohotlar talablariga to'la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatbardosh, yangi sharoitlarga tez moslasha oluvchi kadrlarni tayyorlashga katta hissa qo'shadi. Shu bilan birga mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi etuk mutaxassisni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

O'rta mahsus kasb hunar ta'limi tizimini mutahasis kadrlar bilan ta'minlash motivatsion, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi. Bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy bilimlari va mahorati hamda ko'nikmalarini muntazam ravishda shakllantirishda zamonaviy mehnat bozori, shaxs, davlat va jamiyatning dinamik ravishda o'sib boruvchi ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutaxassislar tayyorlash dinamikasini ta'minlash muayyan kasbni egallashga yo'naltirilgan bo'lajak mutaxassislar tayyorlashning asosiy maqsadidan iboratdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda kasb-hunar ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashning maqsadi va natijalari bugungi kunning eng asosiy masalalaridan biri va bu mavzuning dolzarligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish texnologiyalarining joriy etilishi, mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashni talab etadi.

Bu muammoning ilmiy-uslubiy yo'nalishlarining ilmiy jihatdan tahlili shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar ta'limining ilmiy nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish masalalari S.YA.Bateshev, A.P.Belyaeva, K.I.Katxanov, A.M.Novikov, V.A.Skakun, V.A.Pankratova kabi olimlar katta hissa qo'shganlar, qishloq xo'jalik mehnatining turli jihatlari M.N.Skatkin, P.R.Atutov pedagog-olimlarning tadqiqot ishlarida har tomonlama o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni har tomonlama komil insonlar qilib tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha pedagog olimlardan O.Musurmonova, S.Nishonova, U.Mahkamov, M.Quronov va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish muammolariga U.N.Nishonaliev, A.R.Xodjaboev, E.T.Choriev, O'.Q.Tolipov, N.A.Muslimov, Sh.Sharipovlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bevosita bog'liqdir.

Kasb-hunar ta'limi muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limini takomillashtirish masalalari bo'yicha R.X.Jo'raev, H.F.Rashidov, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismoilova, K.J.Mirsaidov, O.A.Abduqudusov, B.S.Nuriddinov, Q.T.Olimov, S.YU.Ashurova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Kasb-hunar kollejlari malakali kichik mutaxassislar tayyorlash muammosi G.M.Anarqulova, S.R.Volkova, S.YU.Maxmudov, D.A.Zohidova, O'.D.Xidirov, A.X.Abdullaev, Z.A.Dexkambaeva, D.M.Fayzullaeva, N.N.Musaeva, K.M.Abdullaeva, D.F.Jalolova kabi olimlar tomonidan kichik mutaxassislar tayyorlashga oid nazariy-amaliy ishlar amalga oshirilgan. YUqorida keltirilgan olimlarning o'quv amaliyoti jarayonini tashkil etish, kasb-hunar kollejlari ustaxonalarga hamda o'quvchilar ish o'rniga qo'yiladigan talablar bo'yicha fikrlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu konsepsiya (qarash) larda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida, xususan kasb-hunar kollejlari o'quv amaliyoti jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha etarli darajada ishlar olib borilmagan. Xususan, o'quv amaliyotining maqsadidan boshlab, baholash jarayonigacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga qamrab olgan metodika aniq yoritilmagan. O'quv amaliyoti jarayonini tashkil etish

bosqichlariga alohida-alohida qaralgan. O'quv amaliyoti jarayonida kirish, joriy, yakuniy yo'riqlarda amalga oshiriladigan mehnat operatsiyalari va baholash jarayoni o'zaro tizimli va izchil (mantiqiy) bog'lanishga ega emas.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Kasb-hunar kollejlari mutaxassislar kadrlar ta'minlashning maqsadi, kasb- hunar ta'limi tizimida mutaxassislar ta'minlashdagi ustivor yo'nalishlar, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish, o'rta mahsus kasb- hunar ta'limi tizimi haqida va bu sohada faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning turlicha yangi pedagogik texnologiyalari va pedagogik metodlarini o'rganishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- kasb – hunar ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan mutahasis kadrlar bilan ta'minlashning maqsadi, vazifalari va ob'ektiv asoslarini tadqiq qilish;

- kasb ta'limini mutahasis kadrlar bilan ta'minlashning ustivor yo'nalishlari yoritish;

- mutaxassis kadrlarning professional potensialini takomillashtirishda, ilmiy pedagogik darajasini belgilanishida va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

- kasb-hunar kollejlari pedagog xodimlarining kasbiy bilimlarini shakllantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'li va usullarining afzalliklarini tadqiq qilish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy metodologik asosi bo'lib Ozbekiston respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov asarlarida va Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida ,yetakchi pedagog olimlar va mutahasislarning ushbu mavzuga oid ilmiy ishlarida ilgari surilgan go'yalar ,fikir va mushohadalar xizmat qiladi. Shuningdek ,mazkur ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi qonunlari Prezident farmonlari va qarorlari ,vazirlik mahkamasining qarorlari va boshqa meyoriy hujjatlardan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti va ob'yekti. Bitiruv malakaviy ishining predmeti kasb hunar ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan mutahasis

kadrlarni ilmiy pedagogik darajasini aniqlash va takomillashtirish yo'llari hamda bu sohani mutahasis kadrlar bilan taminlashning ilmiy pedagogik asoslarini amaliy jihatdan o`rganishdan iborat. Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti esa 2-Farg'ona ijtimoiy-iqtisodiy kolleji, undagi mutaxassis kadrlar faoliyati va iqtisodiy fanlarni o'qitishdagi usullarning tarkib topishi va rivojlanishini o`rganishdagi dars jarayonlaridir.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi . Kirish ,ikki bob, 6 paragraf , hulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shuningdek, diagramma, jadval va rasmlardan tashkil topgan.

I- bob. Kasb- hunar ta'limi mazmuni va uni mutaxassis kadrlar bilan ta'minlashning ilmiy nazariy asoslari

1.1. Kasb-hunar ta'limi tizimzini mutaxassis kadrlar bilan ta'minlashning maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ta'lim tizimida ham so'nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ushbu sohada jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa'y-harakatlarning samarasi sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun mazmunida Respublika ta'limi tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi. Biroq, *1997 yilga* kelib, O'zbekiston Respublikasining «**Ta'lim to'g'risida**»gi qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tadbiqu tahlil etilganda bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. SHu bois *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»* qabul qilindi.

Har qanday mamlakatning kuchi uning fuqarolarining ma'naviy etukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy etukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning yaratilishida mazkur jihatlar to'la o'rganildi. Milliy dastur asosini O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jahonning

ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarilishiga hissa qo'shuvchi dadil, mustaqil fikrlovchi, bilimli, malakali mutaxassis, shuningdek, ijobiy sifatlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlab voyaga etkazish jarayoni tashkil etadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir¹.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'limga va shu jumladan Kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashga e'tibor kuchaydi. Jamiyatning bugungi kundagi taraqqiyot darajasi bo'lajak kasb egasining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikalarni shakllantirishda ta'lim-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy qismlarining: maqsadi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari va o'qitish vositalarining yangilanishi, o'zgarishi, takomillashtirilishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun Kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarinig tayyorlash tizimining muhim vazifalaridan biri hozirgi o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda tinimsiz rivojlanishga, mustaqil ravishda bilim olishga, hayotiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshira olish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon, ijodkor shaxsni kamol toptirishdan iborat. Bu esa ta'limning yangi shakl va metodlarini, ta'lim mazmunining yangilanishini talab etadi.

Bugungi kunda kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda bo'lajak kichik mutaxassislarning shunday sifatlari talab etiladiki, yuqori darajadagi bilim va kasbiy ko'nikmalar asosida ular pedagogik faoliyatni va ishlab chiqarish jarayonini tahlil qila biladigan, yangi nostandart g'oyalarni ilgari sura oladigan, ratsional, zamonaviy talablarga javob beradigan metod va vositalarni, kasbiy va ilmiy axborotlarni o'zlashtirishning yangi usullarini amaliyotda qo'llay oladigan

¹ Кадрлар тайёрлаш миллий дастури //Олий таълим: меъёрий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2001. – 20-бет.

bo'lishi lozim. Shuning uchun bo'lajak kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning xarakterini sezilarli darajada o'zgartirish kerak. Bu masalalarni hal etish, kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning yangi sifat darajasiga o'tishni talab etadi.

Mustaqil ijodiy fikrlash, tashabbuskorlik faoliyati bilimlarni egallash jarayonida o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, ularni rivojlantirish uchun alohida e'tibor bilan pedagogik ta'sir ko'rsatishni talab etiladi.

Kasb-hunar ta'limi yo'nalish o'qituvchilarni kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarning ortib borishi uzluksiz kasbiy pedagogik ta'lim tizimini rivojlantirishning dolzarb muammosi va talabiga aylanib, Kasb-hunar ta'limimazmunini yangilashning fundamental prinsiplariga, tizimlilikiga, yaxlitligiga, izchilligiga hamda amaliyotga yo'naltirilganligiga asoslangan muhim omili bo'lib qolmoqda.

Zamon talablariga mos keladigan kasb-hunar ta'limi yo'nalishi o'qituvchilarini tayyorlashning maqsadi kasbiy, mutaxassislik salohiyati yuqori darajada bo'lgan, ijtimoiy jihatdan faol, mustaqil ijodkor pedagog shaxsini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda ta'lim rolining o'sishi, ta'limning yangilanish sharoitlarida pedagogning an'anaviy vazifalari bilan bir qatorda, ta'limni va ijtimoiy-madaniy muhitni mazmunan va jarayonning davomiyligi jihatidan oldindan bashorat (prognoz) qilish, loyihalashtirish va tashkil etish kabi kasbiy vazifalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'limning axborot tizimi erishayotgan katta yutuqlar axborot hajmini kengaytirish va ta'lim tizimini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bunda ta'limning asosiy kamchiligi talaba faoliyatining etarli emasligidadir, talaba ko'pincha faqat tayyor axborotni qabul qiladi, bu esa hozirgi davr talablariga javob bermaydi. Axborotlar asriga o'tish paytida, ta'limning yangilanish sharoitlarida, o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini amalga oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini nazorat qilish madaniyatini rivojlantirish davrida, samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarligi jihatdan zamon

talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash darajasiga erishish zarurati pedagog uchun borgan sayin muhim bo'lib bormoqda. Kasb-hunar ta'lim mutaxassislarini tayyorlashning zamonaviy holati, ularning nazariy tayyorgarligi sifatini oshirishning yangi yo'llarini izlash, mustaqil ravishda ijodkorona mehnat qilishga tayyorlash va eng asosiysi pedagogika oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisini nazariy va amaliy–kasbiy faoliyatga tayyorlashning vositalari va metodlarini izlab topishni talab etadi.

Ta'lim sohasi an'anaviy metodlar bilan bir qatorda, rivojlantiruvchi o'qitish metodlarini va birinchi navbatda, ijodiy faoliyatni amalga oshira olish qobiliyatini samarali rivojlantirish, shaxsni har tomonlama rivojlantirish imkonini beradigan loyiha metodlarini ko'zda tutadi. Loyihalashtirish metodi va talabani bilim olish va uni o'zgartirish faoliyati sub'ekti sifatida shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun kasb ta'limi o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga, pedagogik jihatdan loyihalashtirish, o'quv loyihalashtirish faoliyatini tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash zarur bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyoti ilgarilab borgan sari chuqur bilimlar, innovatsiyalar va ularni amaliyotda qo'llash usullarining ahamiyati ortib bormoqda, ya'ni bilim iqtisodiy taraqqiyotda asosiy o'rinlarni egallamoqda, ta'limning turmushdagi, uning turli sohalaridagi tutgan o'rnini tubdan o'zgartirmoqda. Yangi bilimlarni, axborotlarni, ko'nikma va malakalarni egallash, ularni yangilash va rivojlantirishga qaratilgan intilishlar zamonaviy mutaxassislarning asosiy tavsif ko'rsatkichlari bo'lib qoldi. Bugungi axborotlar jamiyatidagi iqtisodiy taraqqiyotning yangi tipi mutaxassislardan kasbiy bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib, malakalarini oshirib borishni talab etadi. Funktsional tayyorgarlik konsepsiyasidan shaxsni rivojlantirish konsepsiyasiga o'tishning mohiyati nafaqat buyurtma bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimidan shaxsning ehtiyojlarini qondirishga o'tishni, balki har bir insonning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, uning o'zini namoyon qilishiga va rivojlanishiga xizmat qiladigan, ta'limning individuallashtirilgan xarakterini nazarda tutadi. Bu talabalarning va o'qituvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga oladigan turli ta'lim

dasturlarini ishlab chiqish uchun turtki bo'lishi mumkin. Ta'limni rivojlantirishning ushbu yo'nalishida talabalarda zamonaviy va istiqbolli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qish ko'nikmalari, mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish muhim omil hisoblanadi.

Oxirgi o'n yillarda inson faoliyatining turli sohalarida texnologiyalar va bilimlarning yangilanishi tezlashuvi kuzatilmoqda. Uzluksiz ta'lim konsepsiyasining rivojlanishi va uni amaliyotda qo'llash muammolari bugungi kunda dolzarb bo'lib qoldi.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tendensiyalaridan biri to'g'ridan –to'g'ri o'qitishdan talabalar bilan individual ravishda shug'ullanish tomonga o'zgarib bormoqda. Ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarning o'rni beqiyos albatta, lekin o'quv jarayonining salmoqli qismi muayyan mavzu yoki muammolar bo'yicha o'qituvchi bilan individual tartibda o'tkaziladigan maslahatlar davrida amalga oshirilishi mumkin.

Zamonaviy ta'limning asosiy xususiyati shuki, ta'lim muassasasi bitiruvchisiga ma'lum bir bilim va ko'nikmalar yig'indisini egallash emas, ularni egallay bilish qobiliyatini rivojlantirish kerak, ishchanlik emas, tashabbuskorlik va mustaqillik xislatlari kerak. Kasb-hunar ta'lim muassasasi pedagogining vazifasi talabani o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun muayyan fan yoki soha o'qituvchisidan farqli o'laroq, ta'lim jarayonlari va ularni rivojlantirish bilan ishlay oladigan professional pedagog bo'lish talab qilinadi. Professional-pedagog – o'z fani bo'yicha bilim beruvchi emas, u ijodiy masalalarni hal etish, talabalarning ko'p qirrali o'qish faoliyatini tashkillashtirish bo'yicha o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda jamiyatda axborot texnologiyalarining, ayniqsa multimedia, virtual dasturlar va global tarmoqlarning to'xtovsiz jadal rivojlanishi davom etmoqda. Bu texnologiyalardan inson faoliyatining turli sohalarida foydalanish turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Eng ko'p ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'layotgan Internet global kompyuter tarmog'i -

umuminsoniyat tomonidan to'plangan turli-tuman ma'lumotlar manbai bo'lib, ularni yig'ish, saqlash, tarqatish va foydalanishning butun tizimini sifat jihatdan tubdan o'zgartirib yubordi. Internet texnologiyalarini o'zlashtirish bu faoliyatning o'ziga xos vositalariga ega bo'lgan yangi axborot muhitini o'zlashtirish demakdir. Bu vositalar nafaqat tezkor axbortni qabul qilish, balki fikrlash qobiliyatini o'stirish, ijodiy masalalarni echishga yangicha yondoshish, shakllanib qolgan fikrlash faoliyatni o'zgartirish imkonini beradi. Internet shak-shubhasiz XXI asrda jamiyatni axborotlashtirish imkonini beradigan, XX asrning katta yutug'i hisoblanadi. Lekin bugungi kunda Internet imkoniyatlaridan foydalanishning telekommunikatsiyalardan inson faoliyatining turli sohalarida kengroq qo'llash bilan bog'liq muammolarni hal etish yo'llarini izlashga o'tish kuzatilmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida hosil bo'ladigan muammolarni muvaffaqiyatli hal etish uchun shaxsning axborot madaniyatini o'stirish zarur. Bu masalani turli bosqichlarida axborotlashtirishning ta'siri aks etayotgan uzluksiz ta'lim tizimi hal etishi mumkin. Ta'lim har qanday jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishining asosi ekan, ta'limni axborotlashtirish gumanitar jihatlarni o'z ichiga olishi kerak. Elektron tizimlar orqali o'qitishning texnokratik tendensiyalari pedagogik jarayonning bilim berish paradigmasidan shaxsni takomillashtirish paradigmasiga o'tishdan iborat bo'lgan zamonaviy ta'limning tendetsiyalariga mos kelmaydi. Hozirgi bosqichda shaxsni takomillashtirishning ta'limiy va rivojlantiruvchi natijalariga erishish maqsadida ta'lim oldida kompyuter texnologiyalarining, shu jumladan Internet texnologiyalarining axborot, namoyish etish va interaktiv imkoniyatlarini mujassamlashgan metodologiyalari, metodlari va usullarini ishlab chiqish vazifasi turibdi.

Kasb-hunar ta'limning yana bir muhim xususiyatlaridan biri – uning globalligi bo'lib, bu xususiyat umumjahon integratsion jarayonlarida, davlatlarning turli sohalar bo'yicha o'zaro hamkorlik faoliyatlarining jadallashishida aks etmoqda. Yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish xalqaro hamkorlik va tajriba almashish uchun keng imkoniyatlarni

vujudga keltiradi. Bunday imkoniyatlardan milliylik xususiyatlarini saqlab qolgan holda turli ta'lim tizimlarini integratsiyalash orqali ta'lim oldida turgan vazifalarni hal etishga yordam berishi mumkin.

Shunday qilib, kasb-hunar ta'limida mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy holati, ularning nazariy tayyorgarligi sifatini oshirishning yangi yo'llarini izlash, mustaqil ravishda ijodkorona mehnat qilishga tayyorlash va eng asosiysi kasb ta'lida bo'lajak kichik mutaxassislarni amaliy va kasbiy faoliyatga tayyorlashning vositalari va metodlarini izlab topishni talab etadi. Barkamol avlodni tarbiyalash, turli sohadagi mutaxassislarni shakllantirish o'qituvchilarning kasbiy–pedagogik tayyorgarlik sifat darajasiga bog'liq.

1.2. Kasb ta'limida mutaxassislarni ta'minlash va ularni tarbiyalashning ustivor yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida faoliyat olib boruvchi shaxsni tarbiyalash, ularni bu kurashga jalb ettirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu g'oyaga tayangan holda, tarbiya jarayonida uning qonuniyatlariga muvofiq tarbiya metodlaridan foydalanib ish ko'rish lozim bo'ladi.

Tarbiya metodlari bu o'qituvchi (tarbiyachi) va jamoa tomonidan g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his-tuyg'u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari demakdir. Tarbiya metodlari talaba (tarbiyalanuvchilar) ning o'z shaxsini takomillashtirish borasidagi harakatni ham tashkil etishni nazarda tutadi. SHu bois hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya metodlari o'qituvchi va talabalarning tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro bog'langan, birgalikdagi faoliyati sifatida qarab chiqiladi. Talabalar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladilar. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o'rinli va samarali tanlanganiga hamda mohirona qo'llanganiga bog'liq. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o'qituvchi (tarbiyachi)

tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o'zlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy tizimning eng asosiy tashkil etuvchilaridan biri – bu shaxsni ijodkorlikka, mustaqillikka, insonparvarlikka, o'zini qadrlay bilish va o'zgalarni hurmat qilishga o'rgatishdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ustivor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- talabalarning qiziqishi-xohishiga qarab ta'lim muassasasi va undan tashqarida tashkil etilgan turli xil uyushmalarga jalb etish;
- talabalar ishtirokida muntazam ravishda har xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish;
- fan to'garaklari, texnik yo'nalishdagi to'garaklar va amaliy ijodkorlik mazmunini o'zgartirish;
- badiiy-estetik birlashmalarni tashkil etish va rivojlantirish;
- huquqiy ta'lim va tarbiyani takomillashtirish;
- ommaviy sport, harbiy vatanparvarlik ishlarini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi malakasini shakllantirish;
- ta'lim muassasasi faoliyatini demokratlashtirish asosi sifatida o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish.

Tarbiyaviy masalalarni hal etishdagi qiyinchiliklar talaba-yoshlarning o'smir yoshi bilan bog'liq muammolar, ularning jismoniy va ruhiy o'ziga xosligi, yoshlarning norasmiy guruhlari ommaviy axborot vositalarining talaba-yoshlarning xulq-atvoriga ta'sirining yoritishi bilan belgilanadi. Nizomlar asosida tadbirlar o'tkazish maqsadga muvofiq. Keyingi vaqtlarda yangi ilg'or tarbiya konsepsiyalari va texnologiyalari paydo bo'lmokda. Bizning nazarimizda ta'lim muassasalarida xilma-xil tadbirlarni tashkil etish (usullari ham) va o'tkazishning umumiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi: ma'naviy - axloqiy yo'nalganlik; umummadaniy mazmun; mantiqiy yakunlanganlik, tadbirlarning yaxlitligi va g'oyaga bo'ysunganligi; hissiy rang-baranglik; bilish va yaratuvchilik asoslarining

birligi; ishtirokchilarning umumiy madaniyatini oshirishni ta'minlash; tadbirda ishtirok etishning ommaviyligi, ya'ni unga ta'lim muassasasining barcha talabayoishlarni jalb etishga harakat qilishi.

Ta'lim-tarbiya ishida aniq didaktik maqsadlarga ko'ra tahsil beruvchi va tahsil oluvchilarning o'zaro aloqador, biri ikkinchisini taqozo etuvchi hatti-harakatlari majmuasi yoki muloqotda bo'lish usullariga ta'lim-tarbiya metodlari deb yuritiladi.

Ravshanki, bularning barchasi kasb-hunar ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya mazmuni bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular ma'lum ta'limiy, tarbiyaviy maqsadga erishish uchun xizmat qiladi. Bu ishlarning barchasini uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil eta olish uchun pedagog-tarbiyachi juda ko'p narsalarni bilishi va uddalashi kerak. YUqori malakali mutaxassislar bo'lgan talab va ehtiyojning tobora ortib borishi oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan barcha rahbar va professor-o'qituvchilarga zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Kasb –hunar ta'limi yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash jarayoni, shuningdek, mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablar bu borada quyidagi muammolarning mavjudligini ko'rsatadi:

- kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda talabalar tomonidan ta'limning tamoyillari, mazmuni, metodi va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoit yaratilmaganligi hamda bilim va ko'nikmalarning shakllantirilmaganligi;

- kasbiy faoliyatning turli yo'nalishlarida talabalarning faol ta'lim shakllariga bo'lgan ehtiyoji va ijtimoiy zaruriyatning to'la qondirilmayotganligi, shuningdek, kasb ta'limi o'qituvchilarining mazkur yo'nalishdagi o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish uchun etarli darajada kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega emasliklari;

Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash mazmunini yangilash kasb-hunar kollejlarda tayyorlanayotgan kichik mutaxassislar sifat darajasini ta'minlashga mas'ul bo'lgan pedagog kadrlarning bilim va kasbiy malakalari darajasini yuqori bosqichga ko'tarishga qaratilgan bo'lib, ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maqsadlarda biogenetik, ijtimoiy-

genetik hamda madaniy-genetik yondashuvlarga asoslangan holda kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish modeli ishlab chiqildi.

Kasb-hunar ta'limida mutaxassislar tayyorlashning muhim ustivor yo'nalishlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin.

1. Zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi.

2. Ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o'qituvchi, malakali o'quv ustalari, texnik xodimlar)ning etarlicha salohiyatga ega bo'lishi.

3. O'quv jarayonining moddiy-texnik (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalar, magnitofonlar (audio, video, multimediya), trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar) jihatdan etarlicha ta'minlanganligi.

4. Ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhit (o'qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarning o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar) yaratilganligi.

5. Tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.

Shuningdek, kasb-hunar kolleji muxandis-pedagog xodimlari oldiga tayyorlanadigan malakali ishchi kadrlarda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish, ularda yuksak mehnat intizomi va madaniyatni, jamoa oldiga burch xis tuyg'ularini tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Bu vazifalarni bajarish ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyadan foydalana oladigan yuqori malakali ishchilarni yetishtirish demakdir. Mazkur vazifani muvoffaqiyatli xal qilishda muxandis-pedagoglarning fan va texnika sohasidagi yutuqlaridan muttasil foydalana bilishlari, o'quv jarayonida ilg'or

pedagogik va ishlab chiqarish ta'limi tajribalarini tadbqiq eta olishlari katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berilgan bo'lib, unga ko'ra ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilingan.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyil quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining
- majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi: akademiy litsey yoki
- kasb-hunar kollejidagi o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli
- bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o'sib kelayotgan yosh avlodda intellektual qobiliyatlar va kasbiy bilimlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Istiqlolga erishgan mamlakatimizda so'z borayotgan o'zgarishlar ta'lim tizimi mazmunini davr nuqtai nazaridan yangilashni taqazo etmoqda. Bunday yangilanish O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi qonun va —Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Jumladan, —Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida shakllantirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimida kasb ta'limiga alohida o'rin berilishi natijasi sifatida kasbhunar kollejlari va litseylarini tizimi shakllandi.

Bugungi kunda o'zining keng tadbiri kutib yotgan, fanning boshqa sohalari bilan bog'liq ravishda ishlab chiqilgan yangi kontseptsiyalar va nazariyalar rivojlantirilmoqda. **Kasbiy ta'lim** uzoq davrlar mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsnitarbiyalashga yo'naltirib boradi, biroq ushbu tadbir bitiruvchilarning kasbiy mahoratini shakllanish darajasini pasayishi hisobiga amalga oshirildi. Bu holat kasbiy mahoratni va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'zi bilimini takomillashtirib borish va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas edi. Respublikamiz ta'lim tizimidagi islohatlar natijasida kasbiy ta'lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Oliy o'quv yurtlarida **kasb ta'limini** tashkil qilish alohida bo'lim fakultetlarning tashkil etilishi; kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog'lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, bilim sohalari tutashuvda yangi kontseptsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi; kasb ta'lim muassasalarining aholiga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish turlarining ortib borishi, o'z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uning xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishi, mehnatni tashkil qilishning ilg'or shakllarini joriy etish va boshqalar. 2018 yil fevral oyida Ozbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'rta mahsus kasb hunar talimi markazi faoliyati bo'yicha qarorni imzoladi. Prezident "Ozbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mahsus ta'lim vazirligining O'rta mahsus kasb hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi" qarorni tasdiqladi. Hujjat bilan Ozbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mahsus ta'lim vazirligining O'rta mahsus kasb hunar ta'limi markazi negizida Ozbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mahsus ta'lim vazirligining kasb- hunar talimi markazi tashkil etildi. **Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilandi:**

- tasarrufida kasb-hunar kollejlari bo'lgan vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalar bilan birgalikda kasb-hunar ta'limi tizimini tashkil etish;

- ta'limi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli dasturlarni hayotga tatbiq etish va kasb-hunar kollejlarda o'quv-tarbiya jarayoniga tashkiliy va metodik rahbarlik qilishni ta'minlash;

- ish beruvchilarning ehtiyojlari va takliflaridan hamda ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqib, shuningdek, iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olib kasb-hunar kollejlarda o'rta bo'g'inning mehnat bozorida talab etilgan mutaxassislarini tayyorlashning o'quv rejalari va dasturlari ishlab chiqilishini tashkil etish;

- yuqori professional rahbarlar va pedagog kadrlarni tanlash hamda ular bilan kasb-hunar kollejlarni ta'minlash, ularning malakasi va kasbiy darajasini muntazam ravishda oshirish, shuningdek, ular mehnatini rag'batlantirish ishlarini tizimli asosda ta'minlash;

- tizimning rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlashning yangi shakllari va usullarini joriy etish;

- respublikadagi barcha kasb-hunar kollejlari o'quv-metodik ishini ularning idoraviy mansubligidan qat'i nazar, muvofiqlashtirish;

- kasb-hunar kollejlarda ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ta'lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish;

- umumta'lim maktablari 10-11-sinf o'quvchilarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarida kasb-hunar ta'limi jarayonini muvofiqlashtirish va metodik ta'minlash.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha belgilangan vaziflarni bajarish respublika kasb-ta'limi tizimida **mutaxassis kadrlar bilan ta'minlashda** muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

1.3. Kasb- hunar ta'limi tizimida malakaviy va o`quv ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish va uni meyorlashtirishning ilmiy pedagogik asoslari

«Ta`lim to`g`risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida»gi qonunlarda ta`lim tizimi jumladan, Oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`lim muassasalari oldiga yuqori malakali raqobatbardosh kichik mutaxassislar tayyorlash vazifasi qo`yilgan.

Kasb-hunar ta`limi tizimida malakali mutaxassislarni tayyorlash ko`p jihatdan maxsus fan o`qituvchilariga bog`liqdir. Malakaviy pedagogik amaliyot davrida kasbiy ko`nikma va malakalar tizimi yaratiladi, talabalar kerakli pedagogik amaliy tajribaga, kasbiy mahoratga ega bo`ladilar. Shuning uchun har bir pedagog o`z sohasining ustasi, mohir tarbiyachi, jonkuyar va fidoiy bo`lishi darkor. U o`z ustida tinmay izlanishi, o`z ishiga ijodiy yondashishi, talabalarni fanga qiziqтира olishi lozim. Bunga erishish uchun esa kasb-hunar kollejlari maxsus fan o`qituvchilari ta`limtarbiya jarayonini va o`z mehnat faoliyatining mazmunini to`g`ri rejalashtira olishi, axborot texnologiyalari hamda zamonaviy texnik vositalardan dars jarayonida samarali foydalana olishi kerak bo`ladi. Bo`lajak umumiy amaliyot vrachi va o`qituvchilarni tayyorlashda Oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`lim muassasalarida o`tadigan malakaviy pedagogik amaliyot muhim bosqichlardan biri sanaladi.

Malakaviy pedagogik amaliyotni amalga oshirish quyidagi ikki bosqichda passiv va faol amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Pedagogik amaliyotni passiv bosqichida- talabalar ta`lim muassasasida obyekt ya`ni kuzatuvchi-o`rganuvchi. Pedagogik amaliyotni faol bosqichida-bevosita ta`lim-tarbiya jarayonining faol tashkilotchisi va boshqaruvchi moderator sifatida faoliyat yuritadilar. Malakaviy pedagogik amaliyot shartnoma asosida kasb-hunar kollejlari hamkorligida o`tkaziladi.

Malakaviy pedagogik amaliyotning maqsadi - talabalarning pedagogika, psixologiya, ta`lim pedagogikasi, pedagogik psixologiya, pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, kasbiy ta`lim metodikasi kabi fanlardan olgan

nazariy bilimlarini ta`lim jarayoniga tatbiq etish orqali dastlabki kasbiy ko`nikma va malakalarni shakllantirish.

Malakaviy pedagogik amaliyotning vazifalari:

- talabalarning psixologiya, ta`lim pedagogikasi, pedagogik psixologiya, pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, kasb pedagogikasi kabi fanlardan olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash;

- talabalarda umumiy psixologik-pedagogik qonuniyatlarni qo`llash malakalarini shakllantirish;

- talabalarni O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalaridagi ta`lim-tarbiyaviy ishlarning nazariy va amaliy holati, ilg`or pedagogik tajribalari bilan tanishtirish;

- talabalarning shaxsiy va kasbiy mahoratlarini rivojlantirish;

- talabalarni bevosita O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalaridagi pedagogik-psixologik faoliyatda qatnashishlariga erishish;

- talabalarda O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida o`quvchilarini kasbga yo`naltirish va tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o`tkazish bilan bevosita tanishtirish;

- pedagogik faoliyatning auditoriyada va ta`lim muassasasidan tashqari ishlarini rejalashtirish ko`nikmalarini shakllantirish;

- talabalarda o`qituvchining ish rejasi asosida tayyorlov yo`nalishini hisobga olgan holda, o`quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish malakasini shakllantirish;

- ta`lim - tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllarini amaliyotga tatbiq qilish ko`nikmalarini shakllantirish;

- talabalarda o`quvchilarni pedagogik va psixologik tavsiflash ko`nikmalarini shakllantirish;

- ilg`or pedagogik texnologiyalarni qo`llash ko`nikmalarini shakllantirish.

Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning bilim, ko`nikma va malakasiga qo`yiladigan talablar: **a) bilishi kerak:**

- malakaviy pedagogik amaliyotning maqsadi, vazifasini biladi;
- malakaviy pedagogik amaliyotni amalga oshirish texnologiyasini biladi;
- kollej tashkil etilish tarixi, uning tashkiliy tuzilmasi; moddiy-texnik bazasi; kabinetlar tizimi va ularning jihozlanganligi; mavjud kafedralar faoliyati haqida tushuncha bera oladi;

- o`quv mashg`ulotlari dars jadvali, o`quv mashg`ulotlar jurnalini biladi;
- o`quv mashg`ulotlari jurnalini rasmiylashtirish qoidalari biladi;
- dars o`tkazish uchun talab etiladigan o`quv me`yoriy hujjatlarni biladi;
- maxsus fan va o`quv amaliyoti mashg`ulotlarini tahlil qilish mezonlarini biladi;

b) amaliy ko`nikmaga ega bo`ladilar:

- kollej fan kabinetlar tizimi va ularning jihozlanganligini tahlil qila oladi;
- maxsus fan va o`quv amaliyoti mashg`ulotlarini tahlil qila oladi;
- maxsus fan va o`quv amaliyoti o`qituvchilarning shaxsiy yillik ish rejasi va hisoboti, taqvim mavzular rejasi, o`quv mashg`ulotlari jurnali, dars rejasi, ma`ruza matni, o`quv didaktik vositalar kabi hujjatlarni tahlil qila oladi;

v) amalda bajara oladilar:

- guruh rahbarining ish rejasini tuza oladi va guruh talabalari bilan ishlay oladi;

- darsdan tashqari tadbirlar (to`garak faoliyati, guruh rahbarining tarbiyaviy ishlari) ni o`tkaza oladi;

- kuzatilgan darslarni rasmiylashtira oladi va natijlarni muhokama eta oladi;

- maxsus fan bo`yicha o`quv –uslubiy majmuasini ishlab chiqa oladi; taqvim-mavzular reja, mavzu bo`yicha dars rejasi, ma`ruza matn, tarqatma materiallar, taqdimot slaydlar nazorat savollari va baholash mezonlarini ishlab chiqa oladi;

- o`quv amaliyoti bo`yicha o`quv–uslubiy majmua ishlab chiqa oladi: taqvim-mavzular reja, mavzu bo`yicha dars rejasi, ma`ruza matn, yo`riqli texnologik

xarita, tarqatma materiallar, taqdimot slaydlar nazorat savollari va baholash mezonlarini ishlab chiqa oladi;

- maxsus fan bo`yicha mustaqil darslarni tashkil etib, o`tkaza olaish;
- o`quv amaliyoti mustaqil mashg`ulotini tashkil etib, o`tkaza oladi;
- o`tkazilgan mashg`ulotni o`quv mashg`ulotlari jurnalining 4 shaklda rasmiylashtira oladi
- birlashtirilgan o`quv guruhida sinfdan tashqari tadbirlar ssenariysini tayyorlab, o`tkaza oladi;
- malakaviy pedagogik amaliyot hisobotini tayyorlay oladi.

1.3.1-jadval. Malakaviy pedagogik amaliyot bo`yicha soatlar taqsimoti va mazmuni

	Malakaviy pedagogik amaliyot mazmuni	Soat
	Passiv amaliyot	12 s
	<p>Malakaviy pedagogik amaliyotning maqsadi, vazifasi ta`lim dasturi bilan tanishtirish: malakaviy pedagogik amaliyotni amalga oshirish texnologiyasi, baholash mezonlari haqida ma`lumot olish.</p> <p>Rotatsiya (talabalarning ish joylarini almashinish grafigi) va malakaviy pedagogik amaliyoti kundaligini yuritish qoidalar bilan tanishish.</p> <p>Kollej haqida ma`lumot berish: tashkil etilish tarixi, uning tashkiliy tuzilmasi; moddiy-texnik bazasi; kabinetlar tizimi va ularning jihozlanganligi; pedagog kadrlari tarkibi; vasiy korxonalar; tayyorlov yo`nalishlari; guruhlar va o`quvchilar soni; ichki tartib-intizom; namunaviy va ishchi o`quv reja, dasturlar, o`quv jarayon grafigi, dars jadvali. Moddiy-texnik bazasi bilan tanishish.</p>	6 s
	Talabalarni kafedralarga birlashtirish: kafedra faoliyati haqida ma`lumot berish. Talabalarni kafedra o`qituvchilariga birlashtirish, ilg`or tajribalarini o`rganish. Nazariy va amaliy mashg`ulotlarni tahlil	6s

	qilish. O`quv me`yoriy hujjatlar: Oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar tizimi DTS, tarmoq yo`nalishi bo`yicha TTS, namunaviy va ishchi reja, maxsus fan va o`quv amaliyoti dasturlarini o`rganish.	
	Faol amaliyot	60 s
	Maxsus fan va o`quv amaliyoti o`qituvchilarning shaxsiy yillik ish rejasi, taqvim mavzular rejasi, o`quv mashg`ulotlari jurnalini, dars rejasi, ma`ruza matn, o`quv didaktik vositalar kabi hujjatlar bilan tanishish, dars tahlili.	6 s
	Maxsus fan va o`quv amaliyoti mashg`ulotlarini tahlil qilish, kuzatilgan darslarni rasmiylashtirish va muhokama etish	6 s
	O`quv mashg`ulotlari jurnalini rasmiylashtirish qoidalarini bilan tanishish. O`quv mashg`ulotlari jurnalini rasmiylashtirish. (1-19 shakllar)	6 s
	Guruh rahbarining ish rejasi bilan tanishish va guruh talabalari bilan ishlash. Darsdan tashqari rejalashtirilgan tadbirlar (to`garak faoliyati, guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar) o`tkazish.	6 s
	Maxsus fan va o`quv amaliyoti xonalarini jihozlashga qo`yiladigan talablarini o`rganish.	6 s
	Muayyan maxsus fan bo`yicha o`quv –uslubiy majmua ishlab chiqish: taqvim-mavzular reja, mavzu bo`yicha dars rejasi, ma`ruza matn, tarqatma materiallar, taqdimot slaydlar nazorat savollari va baholash mezonlarini tuzish.	6 s
	Muayyan o`quv amaliyoti bo`yicha o`quv –uslubiy majmua ishlab chiqish: taqvim-mavzular reja, mavzu bo`yicha dars rejasi, ma`ruza matn, yo`riqli texnologik xarita, tarqatma materiallar, taqdimot slaydlar nazorat savollari va baholash mezonlarini tuzish.	6 s
0	Maxsus fan bo`yicha mustaqil darsni tashkil etish va o`tkazish O`quv amaliyoti mustaqil mashg`ulotini tashkil etish va o`tkazish	6 s

	Malakaviy pedagogik amaliyot hisobotini tayyorlash	6 s
	Malakaviy pedagogik amaliyot ishini himoya qilish	6 s
	<i>JAMI</i>	72 s

Manba: M. Dehqonova. “Kasb ta`lim metodikasi” T.2013.

Malakaviy amaliyot tugaganidan so`ng talabalar quyidagi hujjatlarni taqdim etdilar.

Malakaviy pedagogik amaliyot kundaligi.

- Malakaviy pedagogik amaliyot kundaligi bo`yicha hisoboti:

- Kasb-hunar kolleji haqida qisqacha ma`lumot: o`quv bazasi, tayyorlov yo`nalishlari, pedagog kadrlar tarkibi, o`quvchilar kontingenti, amaliy mashg`ulotlar o`tkaziladigan o`quv xonalari haqida ma`lumot;

- Amaliyotchi talabaning mustaqil dars ishlanmasi (mashg`ulot rejasi, ma`ruza matn, nazorat savollari, taqdimot slaydlari, tarqatma materiallari, talabalarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholash mezonini)

- Maxsus fanlar bo`yicha mashg`ulot olib boradigan 4 ta tajribali pedagoglarning darslarini tahlili (2 ta nazariy va 2 ta amaliy mashg`ulotlar);

- Maxsus fanlar bo`yicha 1 ta nazariy va 1 ta amaliy (mashg`ulot ishlanmasi).

- Tarbiyaviy soat ssenariysi;

- Amaliyot davomidagi talabalarning o`zaro kuzatgan mashg`ulotlar tahlili;

- Malakaviy pedagogik amaliyot rahbari tomonidan talabaga berilgan tavsifnoma.

Ishlab chiqarish ta`limi-nazariy ta`lim jarayonida o`rganilgan umumkasbiy, maxsus bilimlar asosida ish usullari va operatsiyalarini amaliy bajarish bo`yicha ko`nikma hamda malakalarni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish ta`limi o`quv amaliyoti, ishlab chiqarish amaliyoti va diplom oldi amaliyotlarini o`z ichiga oladi. O`quv amaliyoti o`quv rejaning uchinchi blokida keltirilgan bo`lib, unga 660 soat o`quv soati ajratilgan. O`quv rejaning to`rtinchi

blokida esa ishlab chiqarish amaliyoti keltirilgan. Unga jami 648 soat ajratilgan, shundan ishlab chiqarish amaliyoti 360 soatni, diplom oldi amaliyotlari esa 288 soatni tashkil etadi.

O`quv amaliyotlari- bitta umumkasbiy yoki kasbiy fanlarning nazariy

bilimlarni amaliy mustahkamlash, ish usullari va operatsiyalarini amaliy bajarib o`rganish bo`yicha ko`nikma hamda malakalarni shakllantirish maqsadida dastur asosida, ta`lim beruvchi nazorati ostida o`quv ustaxona va laboratoriyalarida, poligonlarda amalga oshiriladi. Bu amaliyot muhandis-pedagoglar nazorati ostida ma`lum bir tartibda va didaktik maqsadli mashqlar tizimini amalga oshirish orqali bajariladi. Amaliy ta`lim mazmuni shu amaliyot uchun nazariy asos bo`luvchi fanlar mazmunidan hamda malakali kichik mutaxassis ish o`rni malaka tavsifidan kelib chiqib belgilanadi. Amaliyotlarni ilmiy asosda tashkillashtirishning birinchi sharti-unga asos bo`luvchi o`quv fanlarini o`zlashtirishdir. Shuning uchun «oldin nazariya, so`ng amaliyot» qoidasiga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy mashg`ulotlarni ilmiy asosda tashkillashtirishning ikkinchi sharti-ixtisoslik bo`yicha laboratoriya va amaliy mashg`ulotlar davrida olingan boshlang`ich ko`nikmalardir.

O`quv amaliyoti mashg`ulotlari quyidagi bosqichlarda o`tkaziladi:

- 1. Tashkiliy qism**
- 2. Kirish yo`l-yo`rig`i**
- 3. Joriy yo`l-yo`riq**
- 4. Yakuniy yo`l-yo`riq**

1-bosqich: Tashkiliy qism

Ta`lim oluvchilar ish o`rinlarining dars boshlanishiga tayyorligi, ta`lim oluvchilar tashqi ko`rinishi (maxsus kiyimni), jurnal bo`yicha ta`lim oluvchilar davomatlari tekshiriladi. Ta`lim oluvchilarga kerakli materiallar, yarimtayyor mahsulotlar, asbob-uskunalar va hujjatlar beriladi.

2-bosqich: Kirish yo`l-yo`rig`i

Ta`lim oluvchilar dars mavzusi va maqsadi bilan tanishtiriladi. Ushbu

mavzuga tegishli o`tilgan nazariy darsdagi bilimlari yuzasidan suhbat o`tkaziladi, ta`lim oluvchilarga savollar beriladi. Shundan so`ng yangi material tushuntiriladi.

Materialni tushuntirish tartibi:

- mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, ish o`rinlarini tashkil etish, o`quv-texnika hujjatlaridan, texnik vositalar va h.k. dan foydalanish bo`yicha ma`lumotlar berish;
- o`quv-ko`rgazmali qurollar yordamida ish jarayonlarini tushuntirish va ko`rsatish;
- uchrashi mumkin bo`lgan xatolar va ularning oldini olish yo`llari bilan tanishtirish.

O`tilgan materialni mustahkamlash uchun turli ta`lim metodlari qo`llaniladi va ta`lim oluvchilar o`zlashtirishini tekshirish maqsadida savollar yoki testlardan foydalaniladi.

Kasb-hunar kollejlari o`quvchilarining ishlab chiqarish amaliyoti haqida namunaviy shartnoma

_____ “ _____ ” _____ 2013 y.

(o`quv muassasasi nomi)

(shahar, viloyat)

quyida “Ta`lim muassasasi”, uning rahbari _____
(ismi sharifi)

_____ bir tomondan va _____

(korxonasi, tashkilot, xo`jalik nomi)

uning rahbari _____
(ismi sharifi, lavozimi)

Kirish yo`l-yo`rig`ini o`tkazish metodlari

Bilimlar berish bo'yicha yo'l-yo'riq To'rt pog'onali metod yoki ma'ruzalar, taqdimotlar va namoyishlardan foydalanish mumkin. Ushbu bosqichda sifatli tayyorlangan o'quv materialini ta'lim oluvchilar diqqat bilan tinglab, kuzatadilar. Rivojlantiruvchi yo'l-yo'riqda izlanish, savol va javoblarga asoslangan davra suhbatlari, tafakkur qilishga undash uchun bahs-munozaralar o'tkazish, muammoni muhokama qilish metodlaridan foydalanish mumkin.

3-bosqich: Joriy yo'l-yo'riq va o'quvchilarning mustaqil ishlari

Ushbu bosqichda muhandis-pedagogning joriy yo'l-yo'rig'i va ta'lim oluvchilarning mashqlari yoki mustaqil ishlari amalga oshiriladi. Nazorat qilish maqsadida ta'lim oluvchilarning ish o'rinlari aylanib chiqiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'z vaqtida ish boshlashlari va ish o'rinlarini to'g'ri tashkil etishlari kuzatiladi, ishning mehnat yo'llari to'g'ri bajarilayotganligi tekshiriladi. Ayniqsa mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi doimiy nazoratda bo'lishi zarur. Joriy yo'l-yo'riq bosqichida mashg'ulot maqsadi, mazmuni, ish o'rinlarining soni va boshqa shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarni guruhlarga (zveno) ajratgan holda amalga oshirish mumkin. Buning uchun ta'lim beruvchi tomonidan o'rin almashtirish jadvali ishlab chiqilishi lozim. Shu jadval asosida mehnat jarayoni amalga oshiriladi. Muhandis-pedagog ta'lim oluvchilar bajarayotgan operatsiyalarni oraliq nazoratdan o'tkazadi. Ushbu bosqich asosan ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashiga qaratilganligi sababli, ta'lim oluvchilarning mustaqil ish bajarishlariga individual holda e'tibor berish talab etiladi. Yo'l qo'yilgan xatoliklar ish joyida bartaraf etilishiga yordam beriladi. Dars mobaynidagi ishlar qabul qilinib, baho qo'yiladi. Joriy yo'l-yo'riq bosqichiga mashg'ulotga ajratilgan vaqtning asosiy qismi, ya'ni 60-70 foizi sarflanadi.

4-bosqich. Yakuniy yo'l-yo'riq Yakuniy yo'l-yo'riqda guruhning bir kunlik ishiga yakun yasaladi. Guruh ishidagi ijobiy tomonlar va kamchiliklar qayd etiladi. Zarurat bo'lsa, dars materialini ta'lim oluvchilar qanchalik o'zlashtirganini aniqlash uchun savollar berish mumkin. Bunday savoljavoblar ishda yo'l qo'yilgan xato va nuqsonlarni tuzatish maqsadida amalga oshiriladi. Mashg'ulotning o'quv va ishlab chiqarish yakunlarini jamoa bo'lib muhokama etish maqsadga

muvofiqdir. Bu o'z navbatida ta'lim oluvchilarni bajarilgan o'quv-ishlab chiqarish ishlari bo'yicha o'z-o'zini tahlil etish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga olib keladi. Shundan so'ng, muhandis-pedagog xato va nuqsonlarni tuzatish yo'llarini ko'rsatishi mumkin.

Ta'lim beruvchi tomonidan har bir ta'lim oluvchi ishiga qisqacha ta'rif berilishi va qo'yilgan bahoni izohlab berilishi lozim. Bu o'z navbatida ta'lim oluvchilarda mas'uliyatning oshishiga, bajargan ishiga nisbatan ta'lim beruvchining befarq emasligiga, bildirilgan fikr va bahoning obyektiv ekanligini anglashiga yordam beradi.

Shundan so'ng, ta'lim oluvchilardan uy vazifasi va navbatdagi dars topshirig'ini kundalikka yozib qo'yish so'raladi. Dars yakunida ta'lim oluvchilardan ish o'rinlari qabul qilib olinadi.

O'quv amaliyotining tashkil etish yo'llarini to'g'ri tanlash va qo'llash ta'lim oluvchilar tomonidan materiallarni yaxshi o'zlashtirishga asos bo'ladi. Shuning uchun, yuqorida keltirilgan bosqichlarda dars mazmunini ta'lim oluvchilarga etkazish o'quv amaliyoti jarayonida olinadigan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga qulay imkoniyatlar yaratishga asos bo'ladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti kasb-hunar kollejlari malakali ishchi kadrlar bo'yicha kasb-hunar tayyorgarligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining «Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish to'g'risi» dagi muvaqqat Nizomi asosida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish amaliyotining vazifasi-hozirgi zamon ishlab chiqarish korxonalariga malakali ishchi kadrlarni tayyorlash, o'quvchilarning o'rganayotgan kasblari bo'yicha bilim, ko'nikmalarini mustahkamlash va takomillashtirishdan iboratdir. Ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish va uning mazmuni, bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning hajmi O'zbekiston Respublikasi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi rahbari tomonidan tegishli kasb yo'nalishi bo'yicha tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar asosida belgilanadi. Ishlab chiqarish amaliyoti boshlanishidan bir oy oldin kasb-hunar kolleji va ishlab

chiqarish amaliyoti o`tkazilishi mo`ljallangan korxonalar (tashkilot, xo`jalik) bilan o`quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini o`tkazishlari to`g`risida shartnoma tuzishi lozim. Shartnomada kasblar bo`yicha ishlab chiqarish amaliyotiga yuborilayotgan o`quvchilar soni, uni o`tkazish muddati, sharoit va tartiblari, ishlab chiqarish texnologiyasi, sanitar-texnik tozalik va mehnat sharoiti va tomonlarning o`zaro majburiyatlari ko`rsatiladi. Korxonaning mulkchilik shaklidan va yuborilayotgan o`quvchilar sonidan qat`iy nazar, o`quvchilarni ishlab chiqarish amaliyotiga yuborayotgan o`quv muassasasi har bir korxonalar (tashkilot, xo`jalik) bilan alohida shartnoma tuzadi. O`quv guruhlarining ishlab chiqarish amaliyotiga umumiy rahbarlik amaliyot o`qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Amaliyot o`qituvchisi o`quvchilarni tegishli kasb va mutaxassisliklari bo`yicha ish joylariga taqsimlanishi, ishlab chiqarish ta`limi va amaliyoti dasturlarining bajarilishi, o`quvchilarning mehnat intizomi va mehnat xavfsizligiga rioya qilishlarini va boshqa vazifalarning bajarilishi yuzasidan javobgar sanaladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti davrida kollej tomonidan biriktirilgan amaliyot rahbari amaliyot obyekti tomonidan biriktirilgan rahbar bilan birgalikda:

1-talabalarning ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladi;

2-amaliyot vaqtida talabalarda vujudga kelgan muammolar va munozarali savollar bo`yicha tushuntirishlar beradi;

3-talabalar tomonidan dasturni to`liq bajarilishini nazorat qilib boradi;

4-hisobot daftarining yuritilishini tekshirib turadi;

5-amaliyot natijalari bo`yicha talabaning hisobotini ko`rib chiqadi.

6-amaliyot obyektlarida bajargan ishlari yuzasidan amaliyot bo`limiga hisobot beradi.

Amaliyot yakunida talaba sinov oluvchi hay`atga quyidagi hisobot va kundalik daftari; tavsifnoma; amaliyot jarayonida to`ldirgan hujjatlardan namunalar kabilar taqdim etishi lozim. Me`yorlash ishlab chiqarish ta`limi jarayoni uchun faqat texnik jihatdagina emas, balki pedagogik jihatdan ham katta ahamiyatga egadir. Meyorlashning texnikaviy (hisob bilan) metodida faqat

berilgan ishni bajarish uchun sarflangan vaqt aniqlanadi. O`quv-ishlab chiqarish ishlarini me`yorlashning pedagogik ahamiyati shundaki, o`qituvchi o`quvchilardan har bir topshiriqni belgilangan vaqt me`yorida bajarishlarini talab qilgan ekan, ularni mehnatning yuqori unumdor usullarini egallashga undaydi, maqsadga erishishda qat`iylikni tarbiyalaydi, ijodiy qobiliyatni o`stiradi. Tajriba ko`rsatishicha, o`quv ishlab chiqarish ishlarini me`yorlashga yetarlicha baho bermaslik o`quvchilar mehnatining unumdorligini pasaytiradi, davr talablaridan orqada qolishga sabab bo`ladi. O`quvchilar tomonidan bajariladigan o`quv-ishlab chiqarish ishlarini me`yorlash quyidagi maqsadlarni ko`zda tutadi:

- Ishlab chiqarish ilg`orlarining ish metodlari va usullarini o`quvchilar tomonidan asta-sekinlik bilan egallashga yordam berishni; o`quvchilarga vaqt faktorlarini qadrlashga o`rgatish va shu orqali o`qitishning oxiriga kelib korxonalarda shunga muvofiq kasb va malaka darajasidagi ishchilar uchun belgilangan me`yorlarni egallashlarini ta`minlashni; ishlab chiqarish ta`limini to`g`ri rejalashtirish va mavjud jihozlardan to`g`ri foydalanish uchun boshlang`ich ma`lumotlarni aniqlashni;

- o`quvchilarning belgilangan me`yorini bajarish ko`rsatkichlari asosida ularning ishlab chiqarish ta`limi bo`yicha o`zlashtirishlarini oqilona baholashga yordam berishni;

- kasb-hunar kollejlarida o`quvchilar ishini texnik me`yorlash, ishlab chiqarish imkoniyatlari, texnologik jarayonga muvofiq ish rejimlari va ishlab chiqarish ilg`or tajribalarini hisobga olib o`tkaziladi. Tashkiliy texnikaviy va boshqa xarakterdagi kamchiliklar natijasidagi yo`qotishlar vaqt me`yoriga kirmaydi.

Shogirdlik vaqt me`yorlarini to`g`ri aniqlash va qo`llash o`quvchilarda rejalashtirish va o`z faoliyatlaricha nazorat qilish malakalarining vujudga kelishiga, kasb mahoratining mukammallashib borishiga, umuman kasbiy texnikaviy tayyorgarlik sifatining yaxshilanishiga ta`sir qiladi. Me`yorlash metodlari. O`quvchilarga ishlab chiqarish ta`limi berishda ikki asosiy davrni: operatsion va kompleks davrni ajratib ko`rsatish mumkin. Operatsion davrda dastlabki malakalar

shakllansa, kompleks davrda ular mukammallashadi va mustahkamlanadi. Operatsion davr o`qituvchi o`quvchilarga mazkur mehnat operatsiyasini tashkil etuvchi ayrim harakat va usullarni to`g`ri hamda maqsadga muvofiqroq bajarishga o`rgatadi. Bu davrda o`quvchilarga vaqt me`yori (yoki mahsulot tayyorlash me`yori) haqida gapirish salbiy natijalar berishi mumkin, chunki buning oqibatida ularning e`tibori ishning sifat tomoniga emas, balki miqdor ko`rsatkichlariga qarab yo`llanishi mumkin. Shuning uchun ham o`quvchilar asosiy ish usullarini, ya`ni mehnat operatsiyalarini o`rganayotganlarida ularga me`yor haqida hech narsa gapirilmaydi. Shogirdlik vaqt me`yorini belgilash uchun avval hisob (texnikaviy) vaqt me`yori aniqlanadi. Hisob (texnikaviy) metodi orqali vaqt me`yorining quyidagi tarkibiy qismlari sarflanadigan vaqt miqdori aniqlanadi: operativ vaqt, ish joyiga qarash vaqti, dam olish tanaffuslari va tabiiy zarurat uchun sarflanadigan vaqt tayyorgarlik va yakunlash vaqti. Operativ vaqt bu berilgan topshiriq (operatsiya)ni bajarishga sarf qilinadigan vaqt bo`lagidir. **Operatsion vaqt** asosiy (texnologik) va yordamchi qismlarga bo`linadi.

Asosiy (texnologik) vaqt deb, ishlov berilayotgan detalning geometrik va shakl o`lchamini (asbob-uskuna yokitikuvchilik ishlari) o`zgartirishga yoki mahsulot qismlarining o`zaro joylashuvini (yig`uv ishlari) o`zgartirish uchun sarflanadigan vaqtga aytiladi. Asosiy (texnologik) vaqt quyidagicha bo`lishi mumkin: qo`lda, agar detal` hech qanday mexanizm qo`llanmay, ishchi tomonidan ishlansa, masalan, tikuvchilik ishlari (qo`lda qavish, qirqish va hokazo). Yordamchi vaqt deb, ishchining detallarni o`rnatish va olish, tikuv mashinasini ishlatish hamda to`xtatish, uzatishni ulash yoki uzish, detallarni o`lchash va boshqalar uchun sarflanadigan vaqtga aytiladi.

Ish joyiga xizmat qilish vaqti- kun bo`yi ish joyiga qarash uchun sarflanadigan vaqtdir. Bunga smena almashtirishga hamda asboblarni charxlash, mashinani ish jarayonida sozlash va yo`lga solish, qirindini yig`ishtirish, jihozlarni moylash va tozalash, asboblarni yig`ish va joyiga qo`yish uchun sarflanadigan vaqt kiradi. Dam olish tanaffuslari vaqti ma`lum yuk aylanmasi va ish sur`ati oshirilgan jismoniy toliqtiradigan og`ir ishlarni bajarilishi uchun ketgan vaqt me`yoriga

qo`shiladi. Qolgan paytlarda dam olish vaqti me`yoriga kiritilmaydi. Tayyorgarlik-yakunlash vaqti- bu ishchining mazkur ishga tayyorlanish va uni yakunlanishiga aloqador harakatlarni amalga oshirishi: texnika hujjatlar, asbob hamda moslamalarni olish va topshirish; chizmalar bilan tanishish va bajarilayotgan ish bo`yicha instruktaj olish; jihozlarni sozlash; ish joyini tayyorlash; asbob va moslamalarni o`rnatish va olish; ishni topshirish kabilarga sarflanadigan vaqtdir. Tayyorgarlik-yakunlash vaqtibu ishchi ishning boshlanishi va yakunida berilgan detal` partiyasi ustida sarflaydigan vaqt; uning davomiyligi detal`larning soniga bog`liq emas. Donali vaqt deb, bitta mahsulotni tayyorlash uchun sarflanadigan vaqtga aytiladi. Unga asosan (texnologik): yordamchi; ish joyiga xizmat qilish; dam olish uchun tanaffus vaqtlari kiradi. Detal` (mahsulotlar) partiyasi yoki bitta detalni tayyorlash uchun zarur bo`lgan vaqt me`yori quyidagi formula bo`yicha chiqariladi.

Korxonalarining buyurtmasi bo`yicha zavod ishlab chiqarish texnologiyasiga mos o`quv-ishlab chiqarish ishlariga hisoblash (texnik) me`yori sifatida korxonalarda qo`llaniladigan me`yorlar ishlatiladi. Korxonalarda ishlab chiqilgan me`yorlari yo`q bo`lgan o`quv-ishlab chiqarish ishlari hamda korxonada texnologiyasidan sezilarli farq qiluvchi texnologiya (yirik seriyali va ko`plab ishlab chiqarish o`rniga kichik seriyali va donalab ishlab chiqarish) bo`yicha bajariladigan o`quv-ishlab chiqarish ishlarini o`quv yurtlari me`yorlash instruksiyasida berilgan me`yorlar jadvalidan foydalanib, hisobot me`yorlarini mustaqil belgilaydi.

Umumguruh instruktaji, ish o`rnini tayyorlash va yig`ishtirish, dam olish uchun tanaffuslar hamda yakunlash instruktajlariga ajratilgan vaqtlar ishlab chiqarish me`yorini belgilash uchun o`quv-ishlab chiqarish vaqtida qo`shilmaydi.

Misollar keltiramiz. O`quv kuni - 6 soat yoki 360 minut. Ishning bajarish uchun belgilangan vaqt 60 minut, bunda o`quv-ishlab chiqarish vaqti 300 minut bo`ladi. Demak, o`quv me`yori har bir mahsulot uchun aytaylik 120 minut bo`lganda o`quvchining kundalik ishlab chiqarish me`yori quyidagicha bo`ladi.

Agar guruh bir xildagi ishlarni bajarsa unda mahsulot soni o`quvchilar soniga ko`paytirib, butun guruh uchun kundalik ishlab chiqarish me`yoriga ega bo`lamiz. Belgilangan (o`quv yoki ishlab chiqarish) me`yorning haqiqiy bajarilishi o`qituvchi tomonidan foizhisobga olinadi va o`quvchilarning ish vaqtidagi hisoblariga qayd etiladi.

Shogirdlik vaqt me`yorini belgilash. O`qitishning ma`lum o`quvchilarning o`quv ishlarini bajarish me`yorlari, korxonalarda ishlayotgan malakali ishchilar me`yoridan farq qiladi. Korxonadagi me`yorni hisoblashda ishchida zaruriy malaka va ishlab chiqarish tajribasi mavjud deb nazarda tutiladi. O`quvchilar esa ta`limning boshlang`ich davrida talab qilinadigan malakalarga butunlay yoki yetarlicha ega bo`lmaydilar, ularning ishlabchiqarish tajribalari juda cheklangan bo`ladi. Shu sabablarga ko`ra o`quvchilar ishni malakali ishchilar uchun qabul qilingan texnik me`yorlar bo`yicha bajara olmaydilar. O`quvchilarda uzoq vaqt davomida zo`r berib ishlashni talab qiluvchi qator ishlarni bajarish sharoitlari uchun yetarli jismoniy moslashganlikning yo`qligini ham hisobga olish lozim. Bundan tashqari, o`quvchilar o`quv topshiriqlarini bajarish jarayonida instruktaj olish uchun ham vaqt sarflaydilar. Shu tufayli har bir kasb bo`yicha tuzatish koeffitsiyentlarining yagona shkalasi kiritilgan.

Malakali ishchining hisoblash (texnik) me`yoridan shogirdlik me`yoriga o`tishida tuzatish koeffitsiyentining shkalasi tajribada sinalgan, kasbhunar kollejlarda jamlangan materiallar asosida o`qitishning har bir oyiga mos qilib tuziladi.

II- bob. Kasb- hunar ta`limi tizimida mutaxassis kadrlardan foydalanishning holati va ular faoliyatini samaradorligini oshirishning yo`llari (Farg`ona 2-ijtimoiy-iqtisodiy kolleji misolida)

2.1. Kasb- hunar kollejida mutaxassis kadrlardan foydalanishning holati va tahlili

Kasb hunar kollejlari talim jarayonining o`ziga hos hususiyatlari hamda o`quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarishni 2-Farg`ona ijtimoiy – iqtisodiy kolleji misolida korib chiqamiz.

Biz FarDU Ijtimoiy iqtisodiy fakulteti kasb ta`limi (Iqtisodiyot)yo`nalishi 14.64-guruh talabalari 2017-yilning sentabr oyidan 2018-yilning aprel oyigacha 2-Farg`ona ijtimoiy iqtisodiy kollejida pedagogik amaliyotini o`tkazdik. Bu davrda biz kollej haqida ancha malumotlarga ega ham bo`ldik .

2-Farg`ona ijtimoiy – iqtisodiy kolleji O`zbekiston Respublikasi `O`rta mahsus kasb hunar ta`limi markazining 18-may 2007 yil №93-sonli Farg`ona viloyat hokimligining o`rta mahsus .kasb hunar ta`limi hududiy boshqarmasining 2007-yil 30-may №79 sonli buyruqlari asosida nashkil etilgan bo`lib ,viloyat hokimligining o`rta mahsus kasb hunar ta`limi hududiy boshqarmasi tasarrufidagi o`rta mahsus kasb hunar ta`limi sifatida faoliyat ko`rsatadi.

2-Farg`ona ijtimoiy – iqtisodiy kolleji quyidagi mutahassisliklar bo`yicha yosh kasb hunar egalarini tayyorlardi

- ✓ **Buxgalteriya**
- ✓ **Moliya**
- ✓ **Menejer**
- ✓ **Keng assortimentdagi kiyimlar konstruktori**
- ✓ **Poyabzal,charm,charm ayyorlik va mo`yna ishlab chiqarish**

tehnik tehnologi

Kollejda jami 850 nafar o`quvchi talim oladi,shulardan

- ✓ **1-kurs 318ta**
- ✓ **2-kurs 223ta**

✓ **3-kurs** **309 t a**

Amaliyot davrida o`rta mahsus kasb hunar ta`limi tizimi, unda faoliyat yuritayotgan mutahassis kadrlar salohiyati, pedagogik mahoratlari, ta`limda yangi interfaol usullardan foydalanish haqida keng ahborot almashdik.

2.1.1-jadval. 2-Farg`ona ijtimiy – iqtisodiy kolleji uchun tayanch o`quv rejasi

No	Fanlar	Soatlar miqdori	Umumiy yuklamaga nisbatan foiz hisobda
1	Umumta`lim fanlar	1994	47,3%
2	Umumkasbiy fanlar	316	7,0%
3	Mahsus fanlar	946	20,7%
4	O`quv amaliyoti	465	10,2%
	Ishlab chiqarish amaliyoti	648	14,2%
5	Davlat attestasiyasi	72	1,6%
7	Kollej ihtiyoridagi soat	119	2,6%
8	Jami	4560	100,0%

Manba: 2-Farg`ona ijtimiy – iqtisodiy kolleji ma`lumotlari

Kasb ta`limi berishda kasb hunar kollejjida o`qitiladigan fanlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan 2-farg`ona ijtimoiy iqtisodiy kollejjida o`quv rejaga binoan o`qitiladigan jami o`qitiladigan soatlar miqdori 4560 soatni tashkil etib jami aostlar miqdoridan umumta`lim fanlari 1994 soatni ya`ni, 47,3 foizni tashkil etadi. umumkasbiy fanlar esa 316 soatni tashkil qilib, 7 foizni, mahsus fanlar 946 soatni tashkil qilib, 20, 7 foizni, O`quv amaliyoti 465 soat bo`lib, 10,2 foizni, ishlab chiqarish amaliyoti 648 soat bo`lib, 14,2 foizni, Davlat attestasiyasi 72 soat bo`lib, 1,6 foizni, Kollej ihtiyoridagi soat 119 soat bo`lib, 2,6 foizni tashkil etadi. Ma`lumotlardan ko`rinib turibdiki umumta`lim fanlariga nisbatan umumkasbiy fanlar va maxsus fanlarni qo`shganda 1,5 barobarga kam soatni tashkil etmoqda

2.1.2--jadval . Fanlar bo`yicha talim dasturi tarkibi

№	Bloklar nomi	Soatlar miqdori		
		Mehnat sig`imi	Audit oriya	Mu staqil ish
1	Umumta`lim fanlar	2833	1994	839
2	Umumkasbiy fanlar	302	212	90
3	Mahsus fanlar	980	690	290
4	O`quv amaliyoti	1177	828	349
5	Ishlab chiqarish amaliyoti	921	648	273
6	Davlat attestasiyasi	102	72	30
7	Kollej ihtiyoridagi soat	165	116	49
	Jami	6480	4560	1920

Manba: 2-Farg`ona ijtimiy – iqtisodiy kolleji ma`lumotlari

Kollejda 40 nafardan o`rtiq fan o`qituvchilari yoshlarga ta`lim tarbiya berib kelmoqda .Shulardan 17 nafari muhassislik fanlari bo`yicha talim berishmoqda. O`qituvchilar bilan dars jarayonida bevosita qatnashib turli iqtisodiy fanlardan o`quvchilarga dars o`tdik.

Darslarni yanada qiziqarliroq qilish maqsadida turli metodlardan ham kengroq foydalanishga harakat qildik.O`quvchilarni darsga bo`lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida va o`tilayotgan mavzu yanada tushunarliroq bo`lish maqsadida quyidagi metodlardan foydalandik.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta`lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o`quv materialini o`rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.


2.1.1-chizma. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi



Manba: Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T.2014.

“Ishbop o`yin” metodi - berilgan topshiriqlarga ko`ra yoki o`yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

2.1.2-chizma. “Ishbop o`yin” metodi



Manba: Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T.2014

“Ishbop o`yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta`lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi.
2. Qatnashchilar uchun yo`riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
3. Ta`lim oluvchilarni o`yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
4. Ta`lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
5. Ta`lim oluvchilar o`z rollari bo`yicha tayyorgarlik ko`radilar.
6. Ta`lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o`yinni amalga oshiradilar. Ta`lim beruvchi o`yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
7. O`yin yakunida ta`lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.
8. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

“Rolli o`yin” metodi - ta`lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko`rsatib beruvchi metoddir.


Chunki rollarni o`ynashda har bir ta`lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta`lim oluvchilarning o`zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o`yinlar o`quv jarayonida ta`lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

“Rolli o`yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

- Ta`lim beruvchi mavzu bo`yicha o`yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o`yin ssenariysini ishlab chiqadi.
- O`yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
- O`yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
- Ta`lim oluvchilar o`z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta`lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.


• O`yin yakunida ta`lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo`lgan ta`lim oluvchilar o`z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o`yinga xulosa qilinadi.

2.1.3-chizma. “**Rolli o`yin**” metodi



Manba: Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T.2014

2.1.4-chizma. “**Muammoli vaziyat**” metodi



Manba: Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T.2014

“Muammoli vaziyat” metodi - ta`lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo`yicha ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta`lim beruvchi mavzu bo`yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o`rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so`ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to`g`risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so`ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni uechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo`llarini ishlab chiqadilar.


7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo`yicha taqdimot qiladilar va o`z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so`ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta`lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo`llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Loyiha” metodi - bu ta`lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo`yicha axborot yig`ish, tadqiqot o`tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta`lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka

tartibda yoki guruhiy bo`lishi mumkin, lekin har bir loyiha o`quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

2.1.5-chizma. “Loyiha” metodi



Manba: Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T.2014

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo`yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma`lumotlar yig`adilar.

2. Ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta`lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.


3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta`lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo`yicha qaror qabul qiladilar. Ta`lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo`yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandispedagog ta`lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalari "Baholash varaqasi"da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

Muhandis-pedagog va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi.

2.1.6-chizma. "Yo'naltiruvchi matn" metodi




Manba: Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T.2014

“Yo`naltiruvchi matn” metodining bosqichlari:

Muhandis-pedagog topshiriqlarni, tarqatma materiallarni va yo`naltiruvchi savollarni ishlab chiqadi.

“Yo`naltiruvchi matn” metodi - ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda yo`naltiruvchi savollar yordamida ma`lumot yig`ish, rejalashtirish, amalga oshirish vazifalarini bajaradigan metoddir. “Yo`naltiruvchi matn” metodida muhandis-pedagog va ta`lim oluvchi faoliyati “Yo`naltiruvchi matn” metodining barcha bosqichlarida muhandispedagog faoliyati “passiv”, ta`lim oluvchi faoliyati esa “aktiv” bo`ladi. Chunki ta`lim oluvchilar muhandis-pedagog tomonidan oldindan tayyorlangan materiallar asosida mustaqil ravishda faoliyat ko`rsatadilar.



1. Ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar, yo`naltiruvchi savollar asosida topshiriqqa oid ma`lumotlar yig`adilar va “Yo`naltiruvchi matn” tuzadilar.

2. So`ngra ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda “yo`naltiruvchi matn” asosida ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta`lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalar va yordamchi vositalarni rejalashtirilishi lozim.

3. Ta`lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo`yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Ta`lim oluvchilar bajariladigan ishlar ketma-ketligi bo`yicha qaror qabul qiladilar, muhandis-pedagog esa faqat maslahatchi sifatida ishtirok etadi.

4. Ta`lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda yakka tartibda yoki guruhlarda amalga oshiradilar. Bu bosqichda ta`lim oluvchilarning amaliy ko`nikmalari shakllanadi. Muhandis-pedagoglar topshiriqning bajarilishini “Nazorat varaqasi”ga qayd qilib boradi.

5. Ta`lim oluvchilar ish natijalarini o`zlari tekshiradilar va “Baholash varaqasi”ni to`ldiradilar. “Baholash varaqasi”da sifat mezonlari, ya`ni talab etilgan me`yorlar beriladi va ular erishilgan natija bilan taqqoslanadi.

6. Muhandis-pedagog va ta`lim oluvchilar birgalikda ish jarayonini va erishilgan natijalarni yakuniy suhbat davomida tahlil qiladilar. Ushbu suhbatda barcha ta`lim oluvchilarning natijalari baholanadi va kelajakda ish jarayonida nimalarga e`tibor berish kerakligi ta`kidlanadi.

“Yo`naltiruvchi matn” metodi “Loyiha” metodi bilan chambarchas bog`liqdir. Ushbu ikki metodni bir-biridan quyidagi nuqtai-nazar bo`yicha farqlash mumkin:

⌚ “Yo`naltiruvchi matn” metodi ta`lim oluvchilarning mustaqil o`rganishiga qaratilgan;

⌚ “Loyiha” metodi esa ta`lim oluvchilarning mustaqil o`rganishidan tashqari, e`tiborni kasb o`rganishda kerak bo`ladigan shaxsiy qobiliyatlar va ko`nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.

Tahsil oluvchilarning o`zlashtirish darajasiga o`qitish metodlarining ta`sir darajasi

1. Ma`ruza-eshitish orqali	5%
2. O`qish orqali	10%
3. Videousul, namoyish-ko`rish orqali	20%
4. Tajribani namoyish qilish orqali	30%
5. Bahs-munozara-muhokama qilish orqali	40%

6. **Mashqlar-o`qigan, yozgan, gapirish orqali 50%**
7. **Ishbop o`yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash-mustaqil o`qish, tahlil va muhokama qilish, himoya va namoyish qilish orqali -75%**
8. **Yo`naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o`qitish – mustaqil o`rganganimizni tahlil va muhokama qilish, boshqalarni o`qitish orqali berilayotgan axborotni 90%i esda saqlanib qolishi mumkin.**

2.2. Mutaxassis kadrlar faoliyatining samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy pedagogik asoslari.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish maqsadida o'qituvchi avvalo pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasasining tayyorlaydigan ixtisosligini e'tiborga olgan holda differentsial o'qitishni amalga oshirishi lozim. O'quvchilarni kasbiy yo'naltirish nafaqat ta'lim mazmuniga kelgusida egallaydigan kasb haqida ma'lumot berish, balki mazkur kasb talab etadigan bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, shaxsiy sifat va fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish mumkin.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq tushunchalar va ularning mohiyati

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

O'qitish texnologiyasi – o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bir bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarni oqilona tanlab olish, o'qituvchi va o'quvchining vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida


loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Identiv o'quv maqsadi – texnologik jarayonning asosiy komponenti bo'lib, kutiladigan natijaga aynan mos keladigan o'quv maqsadi. Identiv o'quv maqsadi o'z navbatida o'quv vazifalariga aylantiriladi.

Interfaol metod – o'quv jarayoning tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham o'quvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui.

Grafik organayzerlar – o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor, to'ldirilgan holda qo'llasa, vosita vazifasini, o'quvchilarning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi.

2.2.1-chizma. O'quv jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlari



2.2.1-jadval. Kasbiy fanlarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish tizimi

o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyasi	interfaol metodlar	grafik organayzerlar
<p>1. Nazariy mashg‘ulot-lari ta‘lim texnolo-giyasi.</p> <p>2. Amaliy mashg‘ulot-lar ta‘lim texnologiyasi.</p> <p>3. Mustaqil ta‘lim texno-logiyasi.</p> <p>5. Keys-stadi ta‘lim tex-nologiyasi.</p> <p>6. Loyiha ta‘lim texno-logiyasi</p>	<p>1. Aqliy hujum.</p> <p>2. Erkin yozish.</p> <p>3. Asoslangan esse.</p> <p>4. FSMU.</p> <p>5. Blits-so‘rov.</p> <p>6. Blits-o‘yin.</p> <p>7. O‘qitish o‘qitish qo‘llanma.</p> <p>8. Yozma va og‘zaki davra suhbat.</p> <p>9. Tushunchalarni aniqlash.</p> <p>10. Tushunchalar asosida matn tuzish.</p> <p>11. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi</p>	<p>1. Klaster.</p> <p>2. B-B-B chizmasi.</p> <p>3. T-chizma.</p> <p>4. Venn diagrammasi.</p> <p>5. Kontseptual jadval.</p> <p>6. Insert jadvali.</p> <p>7. “Nima uchun?” chizmasi.</p> <p>8. “Qanday?” diagrammasi.</p> <p>9. Baliq skeleti.</p> <p>10. Toifalash jadvali.</p> <p>11. Nilufar guli chizmasi.</p>

Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma.T.2013

2.2.2-jadval B.Blum taksonomiyasi bo‘yicha o‘quv maqsadlari toifalariga mos keluvchi fe‘llardan namunalar

	O‘quv maqsadlari	Fe‘llar	
		O‘qituvchi	O‘quvchi
	Bilish	Qayta ishlab chiqmoq Yozib qo‘ymoq Ma‘lumot bermoq	Tasvirlamoq Ajratmoq Tanib olish

		Nomlamoq, Yozmoq	aytmoq Aytib berish Takrorlamoq
	Tushunish	Dalillar keltirmoq Almashtirmoq Aniqlamoq, Belgilamoq Tushuntirmoq	O'tkazmoq O'zgartirib berish Ko'rsatmoq Sharhlamoq Ochmoq
	Qo'llash	Joriy etish Hisoblab chiqmoq Namoyish etmoq Foydalanish O'rgatmoq	Belgilab chiqish Joriy etish Aniqlamoq Amalga oshirish Echmoq
	Analiz	Keltirib chiqarish Ajrati ko'rsatish Differentsiyalash Tasniflash	Oldindan aytish Qismlarga ajratish Taqsimlash Tekshirish
	Sintez	Ixtiro etish Umumiyashtirish Rejalashtirish Ishlab chiqish	Tizimga solish Birlashtirish Yaratish Loyihalash
	Baholash	Isbotlash Asoslash O'lchash Ma'qullash	Baho berish Nazorat ettish Tekshirish, Taqqoslash

Manba: Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. O'quv qo'llanma.T.2013

KASBIY FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

“Interfaol metodlar” tushunchasi

Interfaol va interaktiv so'zlari bir xil ma'noda bo'lib, interaktiv so'zi inglizcha “inter” – “birgalikdagi” va “act” – “harakatlanish” so'zlaridan olingan. Interaktivlik birgalikda harakatlanish yoki suhbat, dialog rejimida nimadir (masalan, kompyuter) yoki kimdir (o'qituvchi) bilan bo'lish demakdir. Bundan

kelib chiqadiki, interaktiv ta'lim – avvalo dialogli ta'lim bo'lib uning davomida o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va kompyuter o'zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Interfaol ta'limning asosini interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Ta'limning interfaol metodlari o'quvchilarning ulkan ta'limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o'quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi: ta'lim oluvchilar guruhining aqliy kuchi uning a'zolari kuchi yig'indisidan ko'proq (ya'ni guruh natijasi individual natijalar yig'indisidan doimo ortiq).

Interfaol o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etadiki unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Interfaol ta'lim – bu ta'limdagi chuqurlashtirilgan muloqot.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimni nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

2.2.3-jadval. Interfaol metodlar tasnifi

O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish.	Insert chizmasi.	Eng asosiy
Klaster.	B-B-B chizmasi.	tushunchalar, takrorlash.
Aqliy hujum.	O'qitish bo'yicha	T-chizma.
B-B-B chizmasi.	qo'llanma.	Toifalash jadvali.
Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-	Bir-biriga o'rgatish.	Nima uchun?
	Bir-biridan so'rash.	chizmasi.

ketligi.	Ikki	qismli	“Qanday?”
Blits-so’rov.	kundaliklar.		diagrammasi.
	Eng	asosiy	Venn diagrammasi.
	tushunchalar		Besh minutlik esse.
			O’n minutlik esse.

Interfaol metodlardan foydalanish yo’llari

KLASTER GRAFIK ORGANAYZERI

Klaster (Klaster-tutam, bog’lam) – axborot xaritasini tuzish yo’li; barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g’oyalarni yig’ish.

Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo’yicha yangi o’zaro bog’lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

O’quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi:

1) o’quvchilar klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog’oz varag’ining o’rtasiga asosiy so’z yoki 1-2 so’zdan iborat bo’lgan mavzu nomi yoziladi;

2) birikma bo’yicha asosiy so’z bilan uning yonida mavzu bilan bog’liq so’z va takliflar kichik doirachalar “yo’ldoshlar” yozib qo’shiladi. Ularni “asosiy” so’z bilan chiziqalar yordamida birlashtiriladi. Bu “yo’ldoshlarda” “kichik yo’ldoshlar” bo’lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g’oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.

3) muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Klasterni tuzish qoidasi:

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G’oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.

2. Xatni to’xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e’tibor bermang.

3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

“CHALKASHTIRILGAN MANTIQUIY ZANJIRLAR KETMA-KETLIGI” INTERFAOL METODI

Masalan, “Ta’lim metodlari” mavzusi bo’yicha amaliy mashg’ulot o’tkazilayapti, deylik. Dastlab o’qituvchi doskaga ta’lim metodlarni chalkashtirilgan holda yozib qo’yadi. So’ngra, ulardan mazkur metodlarni qaysi guruhga kirishiga qarab, og’zaki, ko’rgazmali va amaliy metodlarga tasniflashni taklif etadi.

- Mashq
- Hikoya
- Videometod
- Munozara
- Didaktik o’yinlar
- Laboratoriya metodi
- Suhbat
- Tushuntirish
- Ma’ruza
- Kitob bilan ishlash
- Illyustratsiya
- Demonstratsiya

Og’zaki	Ko’rgazmali	Amaliy
Hikoya	Videometod	Mashq
Munozara	Kitob bilan ishlash	Didaktik o’yinlar
Suhbat	Illyustratsiya	Laboratoriya metodi
Tushuntirish	Demonstratsiya	
Ma’ruza		

ERKIN YOZISH METODI

O'quvchilarga besh daqiqa ichida "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni" mavzusi bo'yicha o'z xayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozishni taklif qilish mumkin. Besh daqiqa tugaganida (eslatma, besh daqiqa tugadi deb e'lon qiling va ishni tugallash uchun yana bir daqiqa vaqt bering, zero qiziqarli fikrlar odatda tang vaziyatlarda tug'iladi) ularga o'z yozganlarini sheriklariga o'qib berishini taklif etish mumkin.

Mazkur bosqichda o'qituvchining ixtiyorida ko'p imkoniyatlar bo'ladi. Masalan, juftliklarga o'z fikrlarini butun guruh bilan o'rtoqlashishni taklif etish va guruhliy-aqliy hujum vaziyatini yaratish mumkin.

INSERT JADVALI

Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: mustaqil o'qish vaqtida olgan ma'lumotlarni, eshitgan ma'ruzalarni tizimlashtirishni ta'minlaydi; olingan ma'lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o'zlashtirgan ma'lumotlarni bog'lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi:

1) o'quvchilar insert jadvalini to'ldirish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida o'zlari to'ldiradilar;

2) o'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq alohida o'zlari jadval ustunlariga "kiritadilar" va tizimlashtiradilar:

"V"- men bilgan ma'lumotlarga mos;

"-" - men bilgan ma'lumotlarga zid;

"+" - men uchun yangi ma'lumot;

"?" - men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniqlash, to'ldirish talab tiladi.

V	+	-	?

O'QITISH BO'YICHA QO'LLANMA

Bunday ishlanmalar o'quvchilarning tadqiq etish faoliyatini ular matni mustaqil o'qish topshirig'ini olishganida yo'naltirishga yordam beradi. Quyida e'tiborimizni, yalpi o'qish paytida, savollar yozilgan varaq tufayli, o'quvchilarning e'tiborini "O'quv maqsadlarini oydinlashtirish" to'g'risidagi matn ichida sochilgan muayyan detallarga jalb etilganiga qaratamiz. Undan avval materialni o'zlashtirish uchun o'qitish bo'yicha qo'llanma quyidagi hollarda yaxshi ko'makchi ekanligini eslatib o'tish lozim:

1) talabalarga o'zlarining kuzatishi ehtimoldan uzoq bo'lgan fikrning ancha nozik harakatini sezishda yordam beradi.

2) ishning hamma bosqichlarida yuqori tartibdagi fikrlashni rag'batlantiradi;

3) munozara yoki yozma ish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ya'ni o'quvchi o'z qobig'iga o'ralib qolmaydi.

VENN DIAGRAMMASI

Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ortiq doiralarda qo'llaniladi, ular o'rtasida yozish uchun etarli joy qolishi kerak. U g'oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini ko'rsatib berishi kerak.


Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi:

1) o'quvchilar Venn diagrammasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida yoki kichik guruhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarni to'ldiradilar;

2) juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar;

3) doiralarni kesishuvchi joyida, ikki-uch doiralalar uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi.



B-B-B JADVALI – BILAMAN/ BILMOQCHIMAN/ BILIB OLDIM

Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi:

1) jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida yoki kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar;

2) "Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz?" va "Nimani bilmoqchisiz?" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning birinchi va ikkinchi bo'limlarini to'ldiradilar;

3) ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar;

4) mustaqil yoki kichik guruhlarda jadvalning uchinchi bo'limini to'ldiradilar.

B-B-B JADVALI		
Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

KEYS-STADI METODI: AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI

Keys-stadining kelib chiqish tarixi.

Keys-stadi inglizcha sase – aniq vaziyat, stadi – ta’lim co’zlarining birikuvidan hosil qilingan bo’lib, aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta’lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o’rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o’quv jarayonida ma’lum bir maqsadga erishish yo’li sifatida qo’llanilsa, metod xarakteriga ega bo’ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma’lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o’zida aks ettiradi.

Ushbu metod dastlab 1920 yilda Garvard biznes maktabida qo’llanilgan. Garvard biznes maktabining o’qituvchilari biznes yo’nalishidagi aspirantura bo’limi uchun to’g’ri keladigan darsliklarning mavjud emasligini tez anglaydilar. Ushbu masalani echish uchun biznes maktabining o’qituvchilari tomonidan qo’yilgan dastlabki qadam etakchi biznes amaliyotchilaridan interv’yu olish hamda mana shu menejerlarning faoliyati, unga ta’sir etuvchi omillar yuzasidan batafsil xisobot yozish bo’ldi. Ma’ruza tinglovchilarga u yoki bu tashkilot to’qnash kelgan konkret vaziyat, ushbu vaziyatni tahlil etish va mustaqil ravishda yoki jamoa bo’lib munozara tashkil etish asosida uning echimi topish tarzida taqdim etilar edi. Keyinchalik keys metodi biznes yo’nalishidagi ta’lim muassasalarida keng targ’ib etilgan. Hozirgi kunda esa, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur metod tarafdorlari ko’payib bormoqda.

Keys-stadi metodining kategorial apparati

Keys-stadi ta’lim metodining kategorial apparatini shakllantirish undan foydalanishning samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini beradi hamda ta’lim jarayonida metodning texnologiyalashtirishga imkon beradi. Keys-stadi metodining asosiy tushunchalari qatoriga “vaziyat” va “tahlil”, ushbu ikki tushunchaning uyg’unlashuvidan kelib chiqqan “vaziyat tahlili” kiradi. Falsafiy nuqtai nazardan “vaziyat” atamasi o’z ichiga bir qator kontekstlarni birlashtiradi. Shuning uchun, ushbu atama yuqori darajadagi barqarorsizlik bilan tavsiflanuvchi

va o'z tarkibida bir qator ziddiyatlarga ega bo'lgan muayyan holat sifatida izohlanishi mumkin. Vaziyat aksariyat hollarda o'zgarish moyilligiga ega bo'lib, uning o'zgarishi ushbu vaziyatda ishtirok etuvchi sub'ektlarning faoliyatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Vaziyat insonlar ta'siriga nisbatan ochiq bo'lib, insonlarning xatti-harakatlari esa ushbu vaziyatda o'z maqsadlariga erishishlari va qiziqishlarini qondirishlariga bog'liq bo'ladi.

Keys-stadi metodining yana bir bazaviy kategoriyasi bu "tahlil (analiz)"dir. Tahlil etish kategoriyasi ob'ektni xayolan bo'laklarga bo'lish yoki ilmiy tadqiq etish sifatida tushunilishi mumkin. Analizning turli tasniflari mavjud bo'lib, umumiy ma'noda analiz tasnifini quyidagicha aniqlashtirish mumkin: tizimli analiz, korrelyatsion analiz, faktorli analiz, statistik analiz va boshqalar. Analizning ushbu barcha turlari keys-stadi metodi doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lib, mazkur holat metodning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Keys-stadida vaziyatni anglash, tafakkur qilish jarayonida amalga oshishi mumkin bo'lgan bir qator analitik faoliyat turlari ishtirok etishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan yuqori darajadagi metodologik madaniyatni talab etadi.

Keys turlari va ularning o'ziga xosliklari

Keys-stadining muammoli vaziyatining determinatsiyasi asosiy manbalari turlicha tasnifga ega bo'lishi mumkin. Keys-stadini tuzishning amaliyotida asosan bir manbaning usutunlik qilishi kuzatiladi. Ushbu yondashuv, manbalarning ta'siriga ko'ra, keys-stadi texnologiyasi doirasida keyslarni tasnifiga asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Bunda *amaliy keyslarni* ajratish mumkin, ular mutlaq hayotiy vaziyatlarni tavsiflaydi; bundan tashqari *ta'limiy keyslar* guruhini ham ajratish mumkin, ularning asosiy vazifasi ta'lim berishdir; *ilmiy-tadqiqotchilik keyslari*, tadqiqotchilik faoliyatini yuzaga keltirish maqsadini ko'zlovchi keyslar sarasiga kiradi.

Amaliy keyslarning asosiy vazifasi – hayotiy vaziyatni mukammal darajada aks ettirishdir. Mohiyatan ushbu keyslar toifasi vaziyatning amaliy modelini shakllantiradi. Keys-stadi metodi o'zida ta'limiy funktsiyani mujassam etsada, turli keyslarda ushbu funktsiyaning namoyon bo'lish darajasi xilma-xil bo'ladi.

Shuning uchun ta'limiy funksiyasi etakchilik qilayotgan keyslar hayotni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Ayni shunday xususiyatlar tadqiqotchilikka doir keyslarga ham xos bo'lib, uning asosiy mazmunini insonning vaziyatga tegishli yangi ma'lumotga va unda o'zini tutishning yangi usullariga ega bo'lish tashkil etadi. Uning ta'limiy funksiyasi ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini modellashtirish metodi vositasida egallashtirishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun bunday keyslar texnologiyasidan kadrlarga dastlabki kasbiy bilimlarni berishda emas, bevosita kadrlar malakasini oshirishda, ya'ni mukammal kasbiy ko'nikma va malakalarga ega, tadqiqotchilik faoliyatiga tayyor sub'ektlar bilan ishlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

Keys topshiriqlarini ishlab chiqish qoidalari

Keys-stadi metodi o'zida quyidagi afzalliklarni va boshqa o'qitish metodlaridan ajralib turuvchi jihatlariga ega: 1) u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tizim modelining mavjudligi hamda ushbu model holatining muayyan vaqt birligi ichida tahlil etilishi; 2) muammo echimini aniqlashga jamoaviy tarzda erishish. Muammoning echimida turli muqobil javoblarning mavjudligi. Yagona echimning mantiqan mavjud emasligi; 3) muammo echimini izlashda yagona maqsadning qo'yilishi; 4) Faoliyatni baholashning guruhviy tizimining mavjudligi.

Har qanday keys quyidagi strukturaga ega bo'ladi:

- vaziyat– muammo, hayotdan misol;
- vaziyatning konteksti – xronologik, tarixiy, joy konteksti, harakat ishtirokchilari o'ziga xosliklari;
- muallif tomonidan keltirilgan izoh;
- keys-stadi metodi bilan ishlashda topshiriqlar va savollar to'plami;
- ilova.

O'quvchilar tomonidan keysni echish bosqichlari:

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar o'quvchilarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo'lsa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samaraga erishish mumkin:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash.

Keysni echish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o'tkazish:

1) real vaziyat echimiga doir o'z variantlarini taqdim etadilar;

2) tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydilar va echimning to'g'riligini asoslaydilar;

3) boshqa guruh a'zolarining savollariga javob beradilar va o'z takliflarini asoslaydilar.

2.3. Kasb-hunar kollejlari mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirish va tizimning shakllanish tamoyillari

Respublikamiz ta'lim tizimi, jumladan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim mazmuni ham "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida bosqichma-bosqich yangilab bormoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi sifatida barcha o'quv predmetlarini o'qitish mazmuni Davlat ta'lim standartlari asosida takomillashtirib borilmoqda. Ushbu islohotlarni samaradorligini oshirishda o'quv muassasalarida ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish, ta'lim jarayonining darsliklar va o'quv adabiyotlar bilan taminlanishini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tgan vaqt mobaynida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun yangi Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilishi mutaxassislik fanlar bo'yicha o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga asos bo'ldi. Qisqa vaqt ichida ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kollejlari uchun mutaxassislik fanlardan ko'plab darsliklar, o'quv adabiyotlar, elektron darsliklar yaratilib, o'quv jarayoniga tatbiq etildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kollejlari mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirish birinchi galda mutaxassislik fanlari mazmuni va ularning qay darajada o'qitilishiga bog'liq. Kasb-hunar kollejlari o'quv jarayonini tahlil qilish kasb-hunar kollejlari mutaxassislik fanlari mazmunini belgilashda integrativ yondashish zarurligini taqozo etmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kollejlari

mutaxassislik fanlarini o'qitishda, ushbu fanlar uzviylikini ta'minlash, integratsiyani amalga oshirish quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:

- iqtisodiy bilimlar yaxlitligini ta'minlashni;
- bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etishni;
- umumiy tushuncha, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga bir xil yondashuvni ta'minlashni;
- o'qitishning kasbiy yo'naltirilganligini kuchaytirishni;
- o'quvchilarda hodisalar, qonunlar, tushunchalar, nazariyalar orasida har tomonlama uzviy bog'lanish mavjudligi bo'yicha bilim amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni.

Fanlararo bunday bog'lanish asosida, darslarni tashkil etish uchun, birinchi navbatda, integrativ xarakterdagi o'quv materiallarining mazmunini aniqlash zarur bo'ladi.

Mutaxassislik fanlarini o'rganishda amaliylikning yuqori bo'lishi, ishlab chiqarishga yaqinligi ularning umumta'lim fanlaridan yaqqol farqli ekanligini ko'rsatadi. Mutaxassislik fanlarida o'quvchining tanlagan kasbi, faoliyat usullari to'la ochib beriladi, yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik fanlar mazmuni, tuzilishi, turlari va shakllari, maqsad va vazifalari, o'rganilayotgan mutaxassislik bo'yicha iqtisodiy jarayonlarni bajarish usullarini ochib beradi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha bilimlarni amaliy qo'llash sohasini kengaytirish, ulardan majmuaviy foydalanish zarurligidan kelib chiqadi. Ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislarni tayyorlashda mutaxassislik fanlarini integratsiyalab o'rganish: ta'lim mazmunini optimallashtirish, bo'lajak kichik mutaxassislarning faoliyatlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni har tomonlama chuqur va puxta o'rganishga; amaliy mashg'ulotlarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning izchilligi va uyg'unligini ta'minlashga; o'zlashtirilgan bilim va kasbiy ish-harakat usullarini oldindan ma'lum bo'lmagan holatlar va vaziyatlarga "ko'chirish", ya'ni o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, mustaqillik va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, umuman

olganda kichik mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga katta imkoniyat yaratadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida integratsiya jarayonlari kichik mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida o'ta muhim va ob'ektiv zaruriyat bo'lib, o'quvchilarni ijodiy kamolot sari yo'naltiruvchi mexanizmdir. Binobarin, ta'limdagi bunday mexanizm samarali ishlashi ta'lim-tarbiyada foydalanilmay yotgan potensial imkoniyatlarni ishga solib, o'quvchi yoshlarning kasbiy tayyorgarligida yangi sifatni ta'minlaydi. SHu orqali ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kollejlarda mutaxassislar tayorlash jarayonini takomillashtirib borish mumkin.

O'zbekistonning qadimiy va muborak zaminida ilm va ma'rifat hamisha eng muqaddas qadriyat, eng bebeho boylik sifatida ulug'lab kelingan. Insonlarga, o'sib kelayotgan yosh avlodga bilim beruvchi kishilarni esa hamisha ustoz-muallim deya ardoqlab kelganlar va hozirgacha bu ana'nalar davom ettirilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, texnik-texnologik hamda ishlab chiqarishdagi mehnat va kasbga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishlari zamonaviy bozor shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyatda inson mehnatining maqsadi, vazifalari, mazmuni, tuzilishi, yoshlarni kelajak hayotga tayyorgarligi, ta'lim-tarbiya tizimining yangilanishini davom ettirishni taqozo etmoqda. Ushbu amalga oshirilayotgan islohatlarning bosh maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligidir. Mamlakatimiz taraqqiyotining eng muhim sharti va zamini kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini yaratishdadir. Respublikamizda mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishini yuqori darajaga erishishi lozimligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Davlatimizning strategik maqsadi shaxs, davlat va jamoat ehtiyojlarini hisobga olgan holda yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning butun tizimini yaratish va rivojlantirishda mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kasb ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining ta'lim, madaniyat, fan va informatsiya sohalarining birligi xalqaro hamkorlikda integratsiyalashuvi;
- kasb ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda insonparvarlashtirish va milliy yo'naltirilganligi;
- kasb ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda o'zgaruvchan sharoitga moslashuvchanligi;
- kasb ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda yoshlarni umumiy va o'rta maxsus kasb ta'limi bilan to'liq, oliy ta'lim va oliy o'quv yurtlaridan keyingi malakali ta'lim bilan tanlov asosida qamrab olish hamma uchun umumiyligi va qulayligi;
- kasb ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda butun tizimi shaxs ehtiyojlarini qondirishga, uning qobiliyatlari va imkoniyatlarini har tomonlama ochishga yo'naltirilganligi ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro mustahkam harakatidir;
- kasb ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda kasbiy ta'lim tizimini iqtisodiyotning ustuvor va foydali tarmog'iga qayta o'zgartirish kiritishdir;
- kasb ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda fan, texnika, texnologiya va iqtisodiyotning eng so'ngi yutuqlari va ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari shakllarining xilma-xilligidir;
- kasb ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv metodik adabiyotlar va moddiy texnik baza bilan ta'minlashdir;
- kasb ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish va axborotlashtirishdir;
- kasb ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim sifatini ob'ektiv nazorat qilish va baholash tizimini qo'llashdan iboratdir.

- kasb ta`limida mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning maqsadi va yo`nalishlarini amalga oshirishning asosiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:
- kasb ta`limida mutaxassis kadrlar tayyorlash barcha tip va shakldagi o`quv muassasalari, kasb-hunar ta`limi muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun uzluksiz ta`lim fan va ishlab chiqarish potensialidan samarali foydalanishdir;
- kasb ta`limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda fan, texnika, texnologiya va iqtisodiyotning zamonaviy yutuqlaridan va xalqaro tajribalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan ilg`or kompleks ta`lim standartlarini qo`llashdir;
- kasb ta`limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda kasbiy ta`lim jarayonida yangi pedagogik, axborot, kompyuter va boshqa texnologiyalarni qo`llashni hisobga olgan holda o`quv rejalari va dasturlarini takomillashtirishdir.

Kasb ta`limida mutaxassis kadrlarni davlat va ijtimoiy tashkilotlarning shaxsning talablarini, mehnat bozori imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasbiy o`z-o`zini belgilashni yoshlarning tabiiy iste`dodlarini qo`llab-quvvatlash va rivojlantirishni amalga oshiruvchi kasbga yo`naltirishga doir faoliyatni takomillashtirishdir. Bu borada shuni ta`kidlash lozimki, kichik mutaxassislarni ishlab chiqarish ta`lim ustalarini hamda yosh avlodni mehnatga, kasb-hunarga yo`naltiruvchi mutaxassislarni tayyorlash tarkibiy tizimida muhim o`rin egallagan fanlardan biri iqtisodiyot praktikumidir.

Xulosa va takliflar

Kasb ta'limida mutaxassis kadrlar tayyorlashda ularning kasbiy bilimlari va mahorati hamda ko'nikmalarini muntazam ravishda shakllantirishda zamonaviy mehnat bozori, shaxs, davlat va jamiyatning dinamik ravishda o'sib boruvchi ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutaxassislar tayyorlash dinamikasini ta'minlash muayyan kasbni egallashga yo'naltirilgan kasb ta'limi mutaxassislari tayyorlashning asosiy maqsadidan iboratdir. Bunda kasb-hunar ta'limidagi o'qituvchining kasbiy intellektual salohiyati, o'quv-metodik-axborotli ta'minot, kasbiy bilimlarni oshirish manbalari, kasb hunar ta'limi muassasasida ijodiy muhitning mavjudligi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning ma'naviy kamolot darajalarining etarliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb ta'limida mutaxassis kadrlarga milliy qadriyatlarimiz va ma'naviy-madaniy merosimizni o'rgatish borasida mutaxassislar, olimlar va mutasaddi tashkilotlar xodimlari tomonidan olib borilayotgan tadbirlarni davlat va hukumatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, hamda rag'batlantirilishi ta'lim-tarbiya jarayonining tubdan isloh qilinayotganligining amaliy isbotidir.

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov "Ilm-ziyo salohiyati - yurt boyligi" nutqida ta'kidlaganidek: "Ayniqsa, o'sib kelayotgan avlod taqdiriga hech kim befarq qaray olmaydi. Bunda ta'lim muassasalarining ahamiyati kattadir. YOshlarni qay usulda o'qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning etuk mutaxassislari bo'lishiga qayg'urish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bunda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi saviyasini jahon andozalari darajasiga etkazish, xalq xo'jaligida mutaxassislarga bo'lgan talab va ehtiyojlarni ilmiy tahlil asosida aniqlash, xorijiy mamlakatlar tajribasidan oqilona foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridandir". Yuqoridagi aytgan nutq esa davlatimizning kadrlar tayyorlash siyosatida bir qator vazifalarni belgilab beradi. Jumladan, 2018 yil fevral oyida Ozbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'rta mahsus kasb hunar talimi markazi faoliyati bo'yicha qarorni imzoladi. Prezident "Ozbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mahsus ta'lim vazirligining Orta mahsus

kasb hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi" qarorni tasdiqladi. Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mahsus ta'lim vazirligining O'rta mahsus kasb hunar ta'limi markazi negizida O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mahsus ta'lim vazirligining kasb- hunar talimi markazi tashkil etildi. Ushbu markaz vazifalarining to'laqonli amal qilinishi kasb ta'limi mutaxassis kadrlari rivojiga katta hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonda kasb ta'limi islohotlarini amalga oshirishdan asosiy maqsad ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori cho'qqilarga olib chiqishdir. Hozirgi zamon har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlarni o'qitish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirishni talab etadi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun ta'limning eski usullaridan voz kechish, faqat muayyan bilimlar majmuigagina ega bo'lgan yosh kadrlarni tayyorlashdan o'zining butun bilim va imkoniyatini namoyon etishga qodir, yuksak axloqli, har tomonlama yetuk insonni tayyorlashga o'tish kerak. Kasb pedagogikasining jahon miqyosida erishgan yutuqlari darajasini, axloqiy-estetik me'yorlar rivoji ustuvorligi hisobga oluvchi milliy maktabga tayanuvchi, milliy madaniyat o'chog'i hisoblanuvchi, shu bilan birga madaniyatlarning oqilona dialogini olib borishga qodir uzluksiz ta'limni rivojlantirish strategiyasi haqidagi masala dolzarb bo'lib qoldi. Bunday ta'lim umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida rivojlantirilishi va mustahkamlanishi lozim.

Bugungi kunda respublikamizda kasbiy ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar va bu sohada faoliyat yuritayotgan mutahasis kadrlarni ilmiy hamda pedagogik mahoratlarini oshirish maqsadida ko'plab ishlar qilinmoqda va yildan yilga bu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun turli qaror va loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Hozirda nafaqat kasbiy ta'lim yo'nalishida balki Oliy va O'rta mahsus ta'lim muassasalari va maktablarda talim tarbiya beradigan mutahasis kadrlarni ilmiy salohiyatini oshirish ,pedagogik mahoratlarini takomillashtirish davlat

siyosati darajasiga ko`tarilayotganini sezish qiyin emas. Aslida shunday bo`lishi ham kerak.

Chunki mamlakatni ravnaqi yo`lida qilinadigan ishlarning eng asosiylaridan biri ham talimga alohida etibor berish ,uning sifatini yaxshilab va takomillashtirib borishdan iboratdir.

Jahon tajribasiga nazar soladigan bo`lsak Osiyo mamlakatlari ichida Yaponiya urushdan keyin nihoyatda og`ir ahvolda edi. Lekin qisqa muddat ichida oyoqqa turib bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan joy olib kelmqda. Bunga asosiy sabab ham hal etuvchi vaqtda to`g`ri siyosat yuritilganligi ,hukumat qolgan bor imkoniyatlarini ta`limni rivojlantirishga sarfladi. Jamiyatda o`qituchiga diqqat e`tiborni kuchaytirdi.Eng asosiysi yoshlarda yurtga bo`lgan muhabbat, sodiqlik, mehnatsevarlik, ilmga doimiy izlanish kabi fazilatlarni singdirish niyat qilingan .Bu ishlarning samarasi bugungi kunda hammaga ma`lum. Yevropa mamlakatlaridan Germaniyada ham butun dunyo tan olgan eng yahshi ta`lim muassasalar bor. Bunday mamlakatlarni ko`plab misol keltirishimiz mumkin . Har yili mamlakatimizda minglab talaba yoshlar bu davlatlarda o`qib o`zlarini bilim doiralarini kengaytirib qaytishmoqda .

O`zbekistonda ham ta`lim sohasiga berilayotgan imkoniyatlar bu davlatlarnikidan kam emas albatta. Ta`lim sifatini oshirishda kasbiy talim yo`nalishida tahsil olayotgan mutahasislarni ko`proq qo`llab quvvatlash maqsadga muvofiqdir . Chunki mana shu tarmoq orqali respublikaning deyarli barcha sohalari uchun malakali kadrlar yetkazib beriladi.

O`rta mahsus kasb hunar ta`limi tizimini mutahasis kadrlar bilan ta`minlashning ilmiy pedagogik asoslari mavzusida tayyorlangan bitiruv malakaviy ishida keltirilgan ma`lumotlar, fikr, mulohazalarga asoslanib O`rta mahsus kasb hunar ta`limi tizimini zamonaviy va intellektual salohiyatli mutahasis kadrlar bilan ta`minlashni takomillashtirish hamda o`rta mahsus kasb hunar talimi kollejlarda tahsil olayotgan talaba yoshlarni nazariy hamda amaliy bilimlarini yanada oshirish va mustahkamlash hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq yurtimiz

ravnaqiga katta hissa qo`sha oldigan mutahasis kadrlarni yetishtirish uchun quyidagi takliflar havola etiladi:

1. OTMlarda kasb ta`limi yo`nalishiga talabalarni qabul qilish uchun kvotalarni oshirish .Lekin shu o`rinda haqli savol tug`ilishi tabiiy ya`ni hozirgi kunda kasb hunar kollejlari soni keskin qisqarib borayotgan bir vaqtda bu o`rinlimi? Bularga ham quyidagicha javoblar bor .Birinchidan kasb hunar kollejlarida ta`lim berayotgan fan o`qituvchilarining ayrim qismi pedagogik mutahasislikka ega emas.Ikkinchidan kasb ta`lim sohasida tahsil olayotgan talabalarni mutahasisliklari aynan kasb hunar kollejlarida, akademik litsey hamda maktablarda turli fanlardan bilim berishdan iborat.Uchinchidan kasb hunar kollejlarini qisqartirilishi va kasb ta`limi mutahasisligida tahsil olayotgan talabalarni sonini ko`payishi hisobiga kasb hunar kollejlari va akademik litseylarni deyarli to`liq qamrovda kasb ta`limi pedagoglari bilan ta`minlash imkoniyati oshadi.To`rtinchidan kasb hunar kollejlarini qisqartirilishi munosabati bilan o`rta mahsus diplomga ega bo`lgan kadrlar soni ham keskin kamayadi va bu ma`lumotga ega bo`lgan yoshlarni ham to`liqroq ish bilan ta`minlash imkoniyati oshadi . Shunday ekan kasb hunar kollejlarida ham yuqori malakali kadr bo`lib yetishish talab qilinadi albatta va fan o`qituvchilari ham shunga munosib bo`lishlari shart.

2. OTMlarda kasb ta`limi yo`nalishidagi talabalarni o`quv sharoitlarini yaxshilash, ularga chet tillarini o`tishda alohida yondashuv, respublika miqyosida kerakli adabiyotlar bilan to`liq taminlash hamda bu yo`nalishdagi talabalarni horijiy mamlakatlarda tahsil olishlari uchun amaliy yordam berish hamda turli grantlar asosida ularni rag`batlantirish.

OTMlarda kasb- ta`limi yo`nalishidagi talabalarni o`quv sharoitlarini yaxshilash albatta bu ularning yanada yaxshi bilim olishlarini ta`minlaydi.Ularni o`quv honalarida kompyuter jihozlari va internet bilan ta`minlash foydadan holi bo`lmas edi,chunki kun sayin yangi o`zgarishlar sodir bo`layotgan dunyoda yangiliklarni bilmasdan va analiz qila olmasdan yetuk kadr bo`lish haqida so`z bo`lishi mumkin emas . Bunda tashqari chet tillari (asosiy rus tili ,ingliz tili)ni ham

umuman bilmasa ,chet davlatlar tajribasi haqida umuman malumotga ega bo`lmasa informatsiyani analiz qilish qobiliyati nisbatan ancha kamroq bo`ladi , chet tillarini yahshi bilgan insonni fikrlash qobiliyati ham o`ziga hos va nisbatan kengroq fikrlaydi.Chunki chet tillarini o`rganish davomida shu tilda so`zlashuvchi davlatlar yahash tarzi insonlarni dunyoqarashi ,ijtimoiy siyosiy hayoti,iqtisodiyot ,siyosat ,maorif singari sohalari haqida ham turli tushunchalarga ega bo`linadi .Chet tillarni yahshi o`zlashtirgan talabalarda o`zaro solishtirish .taqqoslash,yutuq va kamchiliklarini tahlil etish va yakuniy hulosa chiqarishga zamin bo`ladi.Mana shunday talabalarga chet davlatlarda ta`limini davom ettirish uchun yordam berish maqsadga muvofiqdir chunki bu bilimlarini yanada yuksaltirib ,chet davlatlarni turli sohalardagi yangiliklarini va ijobiy tomonlarini bizda qo`llashga ularda imkoniyat ko`p.

Kasb- hunar kollejlarni ta`lim tizmini yanada rivojlantirish va kasb hunar kollejlari talabalarini bilim va malakalarini yanada oshirish uchun quyidagi takliklar beriladi.

3. Barcha kasb hunar kollejlariga talabalarni test asosida (malum fanlar bo`yicha)to`lov kontrakt (tahminan 75 %)va davlat granti (tahminan 25%)asosida o`qishga qabul qilinishi .

4. To`lov kontraktning bir yillik summasi eng kam oylik ish haqining 5 barobaridan 10 barobarigacha bo`lgan miqdor orasidan tanlab olish maqsadga muvofiqligi. (Chunki aniq qancha summa ekanligi aniq hisob kitob qilinishi kerak) .

5. Kollejda a`lo hamda yahshi bahoga (4va 5)o`qiyotgan talabalarga stipendiyalar joriy etish va uning summasi eng kam oylik ish haqqining 50%dan 75%foizigacha bo`lgan miqdor orasidan tanlab olish kerakligi (4va 5 baholariga o`qiydigan talabalarga bir hil miqdorda to`lash ham munkin).

6. To`lov kontakdan yig`ilgan pullarning tahminan 80 %i atrofidagi summa talabalarga (4va 5) stipendiya sifatida qaytarilishi, 10%i atrofidagi summasi kasb hunar kollejlarni moddiy tehnik bazasini yaxshilash hamda turli fan adabiyotlari bilan taminlash uchun, 10%i atrofidagi summa ma`muriy harajatlar uchun

foydalanilishi maqul Shunda bu ishlarni amalga oshirish uchun davlat byudjeti tomonidan deyarli ortiqcha mablag` ajratishga o`rin yo`q

7 . Kasb hunar bitiruvchisi agar o`zi o`qigan soha bo`yicha OTM larga hujjat topshirsa ularga turli imtiyozlar berish jumladan:to`plash mumkin bo`lgan balning 10% dan 15%gacha bo`lgan qismini qo`shib berilishi (agar aynan mutahasisligi mos bo`lsa).va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro`yhati

O`zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O`zbekiston Respublikasi konstitusiyasi -T.:O`zbekiston,2009.
2. Kadrlar tayyorlash millioy dasturi//Oliy ta`lim Me`yoriy hujjatlari-T.:Sharq 2011
3. “Ta`lim to`g`risida” O`zbekiston Respublikasi Qonuni //Oliy ta`lim Me`yoriy hujjatlari- T.:Sharq 2011.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O`zbekiston Respublikasi Vazirliklarini huquqiy-me`yoriy hujjatlari

4. Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va ahborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora tadbirlari to`g`risida : O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2002 yil 7-iyundagi qarori\\xalq so`zi gazetasi 08.06.2012-№108
5. Oliy ta`limning davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash tog`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli qarori //Ma`rifat gazetasi-2001.07.08-№108
6. O`rta mahsus kasb hunar tayolimi tizimi uchun darsliklar va o`quv adabiyotining yangi avlodini yaratish to`g`risida : O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 341 sonli qarori //Ma`rifat gazetasi-2001.17.08 -№-121
7. 2010 yilgacha bo`lgan davrda orta mahsus ,kasb hunar talimini pedagog va muhandis pedagog kadrlarini tayyorlash qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish dasturi //Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 4-oktabrdagi 400-sonli qarori//Ma`rifat gazetasi-2001.05.10 № 221

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

8. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch –T.:”Manaviyat 2008”
9. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz –vatanimiz taraqqiyot va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir:2009-yilning asosiy yakunlari va 2010 Ozbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustivor yo`nalishlariga

bag`ishlangan Vazirlar mahkamasining majlisidagi martuzasi //Xalq so`zi gazetasi.-30.01.2010

10. Karimov I. A. O`zbekiston konstitutsiyasi –Biz uchun demokratik taraqqiyot yo`lida va fuqorolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir .O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 17 – yilligiga bag`ishlanga tantanali marosimdagi maruza //Xalq sozi gazetasi.-06.12.2009

11. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil ,qatiy tartib intizom va shahsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak.Toshkent “Ozbekiston” 2017

12. I.A.Karimov. Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent., 1998.

Darsliklar

13. Rashidov X., Xabib X. va Eldasheva G., Zakirov A. Kasbiy pedagogika. -T: 2007

14. O. Abduquddusov, X.Rashidov. Kasb-hunar pedagogikasi. – T.: 2010.

15. Sibirskaya M.P. Professionalnoe obuchenie: Pedagogicheskie texnologii. – Sankt Peterburg, 2002.

16. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. Pod. red. V.A.Slastenina. - Moskva. Akademiya, 2004.

17. -Ho`jaev.N.Hoshimova M, Hoshimova M va boshqalar Pedagogika (darslik)-T.:2007

18. Mamura Dehqonova : “Kasb ta`lim metodikasi” oliy o`quv yurtlari uchun darslik Toshkent-2013

19. S.Yuldasheva “Talim texnologiyalari” oily o`quv yurtlari uchun darslik Toshkent – 2014

20. O`.M.Asqarova, M.Xayitboev, M.S.Nishonov «Pedagogika». Oliy o`quv yurtlari talabalar uchun darslik. «O`zR Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi». – T.: «Talqin», 2008.

O`quv qollanmalar

21. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. O`quv qo`llanma.
22. Avliyaqulov N.X., Musaeva N.N. Kasb-hunar kollejlarda kasbiy fanlarning modulli o`qitish texnologiyalari. O`quv metodik qo`llanma. -T.:Yangi asr avlodi, - 2003. – 88 s.
23. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: Ta`lim markazi, 1999. -55 s.
24. O`. Tolipov., M.Barakaev., SH.Sharipov. Kasbiy pedagogika. (Ma`ruzalar matni). – T.: TDIU, 2001 yil.
25. I.Y.Tursunov., U.N.Nishonaliev. Pedagogika kursi. – T.: O`qituvchi, 1997..
26. -Ziyomuhamedov B Manaviyat asoslari .-T.:”Ozbekiston ensiklopediyasi “2000
27. -Hakimova M.F Kasb pedagogikasi.T.:Fan va texnologiya
28. Zamonaviy ta`lim texnologiyalari : mazmuni loyihalashtirish va amalga oshirish .Ekspress qo`llanma .2001 .TASIS loyihasi
29. Frank Vengkefer, Berufliche Bildung und Consulting GmbH, («Kasbiy pedagogika» maxsus sohasining muhim masalalar asosida Frank Vengkeferning konsepsiyasi), Berlin, 2002.
30. K.Olimov, O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonova, D. Jalilova. «Kasb ta`limi uslubiyoti» o`quv qo`llanma. T: TFI, 2006.

Foydalanilgan internet saytlari

1. **www. Ilm. uz.**
2. **www. Ziyonet. uz**
3. **www. Tosh DPU. uz**
4. **www.rambler.ru**
5. **www.lupa.ru**
6. **www.mail.ru**

- 7. www.referat.ru**
- 8. www.yandex.ru**
- 9. www.google.uz**
- 10. www.students.ru**
- 11. www.bilim.uz**
- 12. www.reviev.uz**